a) Botuxon hujumi arafasida mamlakat 50 ta knyazlikka bo'lingan; b) XIV asr o'rtalarida Ganza ittifoqi vujudga keldi; c) Shtaufenlar sulolasi boshqaruvidan so'ng 20 yil imperator saylanmadi; d) Gastings jangida qirol Garold va qo'shini halok bo'ldi; e) 407-yil rim legionlari Britaniyani tark etdi; f) mamlakat grafliklarga bo'linib har birini sherif boshqargan; g) uchinchi salib urishida qatnashgan; h) 1215-yilda Buyuk Ozodlik xartiyasi imzolangan.; i) Papa Innokentiy III bu davlatga juda katta ta'sir ko'rsata olib,Barbarossaning 18 yoshli nabirasi qirol etib saylaydi
A)I-d, f, h; II-b, c, i; III-g B)I-e, g, i; II-c, f, h; III-a C)I-b, e, i; II-c, f, g; III-a D)I-c, f, g; II-b, i, h; III-d

[1,3 ball]

21.O'rta asrlarda Yevropasing eng mashur yarmarkasi Fransiya shimoli g'arbida joylashgan Shampan grafligi bo'lib uning markazi **qaysi shahar bo'lgan?**

A) Ruan B) London C) Reims D) Shartr

[2,2 ball]

22.Quyidagilardan qaysi voqealar IV-VI asrlardagi xalqlarning buyuk ko'chishlariga **sabab BO'LMAGAN?**

1) Ikki dalali almashlab ekish; 2) Rimliklarning shimoli sharqiy tomondan xavf solishi; 3) II asrdan iqlimning soviy boshlashi; 4) Aholi sonining ko'payishi; 5) Xunn qabilalari hujumi
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 4 D) 3, 5

[2,2 ball]

23.XII-XIII asrlarda Rusda markaziy hokimiyatga qarshi qaysi mahalliy boyarlar kurashgan edi?

1) Kiyev; 2) Novgorod; 3) Yaroslavl; 4) Vladimir-Suzdal; 5)Rostov; 6) Galich-Volin
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

[1,3 ball]

24.Arab xalifaligida islomni qabul qilmagan boylardan 48,o'rtahollardan 24,kambag'allardan 12 dirhamdan olingan **soliq qanday atalgan?**

A) xiroj B) jizya C) ushr D) zakot

[1,3 ball]

25.Saljuqiylar davlatida mavjud bo'lgan **Iqto tartibi qanday tartib bo'lgan?**

A)Harbiy va amaldorlarga xizmatlari evaziga in'om etilgan,merosiy bo'lmagan yer berish.
B)Xon ixiyorida maxsus gvardiya tashkil etib,favqulodda vaziyatlar uchun jangovar holatda tutish
C)Davlat oldida ko'satgan xizmalari evaziga ,nasldan naslga o'tadigan yer berish tartibi
D)Favulodda harbiylar uchun soliq olish tartibi

[2,2 ball]

26.IX asrdan Arab Xalifaligidan ajralib chiqib,mustaqilikka erishgan **hududlarni belgilang.**

1) Misr; 2) Qurdoba ; 3) Eron; 4) Movarounnahr; 5) Hindiston; 6) Suriya; 7) Xuroson.
A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 7

[2,2 ball]

27. O'zaro muvofiqlik saqlangan javobnitoping.

I. Xitoy; II. Hindiston; III. Koreya; IV. Benin;

a) Xanlin akademiyasi; b) Shoh Saroyi; c) Pulguksa; d) Ajanta;

1) Budda ibodatxonasi; 2) Tog'da o'yib ishlangan ibodatxona;

3) Jezdan ishlangan bo'rtma rasmlar; 4) VIII asrdan olimlar oliy yig'ini.

A) I-c-1; II-d-2; III-b-4; IV-a-3 B) I-d-1; II-a-3; III-b-4; IV-c-2

C) I-c-2; II-d-1; III-a-3; IV-b-4 D) I-a-4; II-d-2; III-c-1; IV-b-3

[1,3 ball]

28. Qaysi universitetga qirol xonadonir Rober de Sarbon tomonidan asos solingan?

A) Parij B) Tuluza C) Sevilya D) Valensiya

[1,3 ball]

29. Ilk uyg'onish madaniyatining Yevropadagi dastlabki vakili nomi va uning asarini aniqlang.

A) F. Petrarka "she'riy maktublar" B) Shekspir "Otello"

C) M. Polo "Marko polo sayohati" D) T. Mor "Utopiya"

[2,2 ball]

30. Mualliflar va ularning asarlari to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

1	• Tatsit	A	• "Germaniya"
2	• Fridirix II	B	• "Marselyeza"
3	• Yuliy Sezar	C	• "Nola falsafasi"
		D	• "Qushlar bilan ov qilish"
		E	• "Don Kixot"
		F	• "Galiya urushi haqida xotiralar"

A) 1-a, 2-d, 3-f B) 1-d, 2-f, 3-a C) 1-a, 2-f, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-f

[2,2 ball]

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	• Xo'ja Sinon	A	• millati yunoni bo'lgan me'mor.Turk madaniyatiga oid 300 dan ziyod qurilishga rahbar bo'lgan
2	• Piri Rais	B	• Afina akademiyasiga asos solgan
3	• Manelik	C	• Aksumning birinchi hukumdori.Sulaymonning Arab malikasida tu'g'ilgan farzandi
		D	• Xitoylik rohib
		E	• Turkiyalik dengiz sayyohi Bahriya asari muallifi
		F	• Insonni tarbiyalash tarix, ritorika, filologiya, etikava pedagogika muhimligini ta'kidlagan gumanist

A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

[1,3 ball]

32. Kitob chop etish yuksalgan.Antik davr mualliflari va gumanistlar asarlari butun Yevropaga tarqalishi **qaysi shaharda amalga oshirilgan?**

A) Venetsiya B) Vizantiya C) Florensiya D) Genuya

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang

33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan? 34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida inglizlar qo'lida Kale porti qoldi? 35. [2,2 ball] Rus(Rossiya) tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.	A) Azenkur jangi bo'ldi. B) Onon daryosi bo'yida davlat tuzildi. C) Fridirix II qirol deb e'lon qilindi. D)Yuz yillik urush yakunlandi. E) "Muz ustidagi jang"bo'ldi. F) Usmonli turklar davlati tashkil topdi.
---	--

36. Min sulolasi 1368-1644-yillarda mavjud bo'lgan.

[1,1 ball]

a) Ushbu sulolaning asoschisini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu sulola davrida Zond arxipelagi,Hindiston va Shri Lankaga 7 marta yurish qilgan shaxs nomini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. Angliyad XV asr ikkinchi yarmida toj-u taxt uchun katta urush bo'ldi.

[1,5 ball]

a) Bu urush tarixga qaysi nom bilan kirganligini aniqlang va uni yozing.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu urush natijasida 1485 yilda taxtga kelgan Genrix VII Tyudorni qo'llagan xonadon nomini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. 1337-1453-yillarda Yevropada yuz yillik urush bo'lib o'tdi.

[1,5 ball]

a) Qaysi davlat taxti uchun kurash bu urushga sabab bo'ldi?

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu kurashning so'ngida 1431 yilda Ruanda kimning o'ldirilishi natijasida fransuzlarda vatanparvarlik tuyg'usi kuchaydi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

39. XIV-XV asrlar Songai davlati yuksalgan.Niger daryosi havzasini to'liq egallagan.

[1,5 ball]

a) XIV asr oxirida mustaqil davlatga solgan shaxsni aniqlang.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu davlat 1-ming yillikda tuzilgan bo'lib XIV asrgacha qaysi davlat ta'sirida bo'lgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40. XIII asr boshida Mo'g'ullar davlati vujudga keldi

[1,1 ball]

a) Mo'g'ular hujumidan so'ng XIII asrning 40 yillarida Shimoliy Kavkazdan Qora dengizgacha,Volgabo'yidan Moldaviyagacha bo'lgan hududlarda qaysi davlat tashkil topdi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) XIII asrda ushbu davlat Xuloku vorislari bilan qaysi hudud uchun raqobat qila boshlaydi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

41. Duamloq stol afsonasida: " Davra stoli ... a) qal'asidagi eng katta zalda edi. Uning atrofidagi o'rindiqlarda ritsarlardan o'z jasorati bilan olijanob va halol insonlar davrasiga kirish huquqini qo'lga kiritgan hamda yuqori ritsarlik ordeniga sazovor bo'lganlari o'tirgani aytiladi. Manbalarda ritsarlarning soni turlicha keltiriladi, ularning aksariyatida... b)ta bo'lgani yozib qoldirilgan".

Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javoblarni yozing.

[1,1 ball]

a)

Javob: a)

[1,1 ball]

b)

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

42. XI asrda Normandiya gersogi Vilgelm Angliyani egalladi.

[1,1 ball]

a) Qaysi hukumdor harbiy majburiyat o'rniga qalqon puli solig'ini joriy etdi? (shaxs nomini yozing)

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu sulola(Normandiyaliklar) davrida Londonda qurilgan qal'ani aniqlang.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43. Amir Temur 1398-1399 yillarda Hindistonga yurish qiladi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davrda Hindistonda hukmronlik qilgan shaxs nomini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu yurish natijasida Sohibqiron qaysi shaharni zabt etadi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. O`rta asrlarda yashagan Ziryab faoliyati haqidagi matnni o`qing va shu asosda berilgan topshiriqlarni bajaring.

" Ziryab IX asrda yashagan.U ko`plab yangiliklar kiritgan. Hozirga qadar qachonlardir Ziryab kashf qilgan ko`plab narsalardan foydalanamiz. U mavsumga qarab kiyim kiyishni joriy etgan. "

[1,1 ball]

a) Ushbu shaxsning kasbini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ziryab oltin va kumush idishlar o`rniga qanday idishlardan foydalanishni joriy etgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

45. VII-VIII asrlarda ulkan hududlarni egallaga Arab xalifaligi vujudga keldi.

[1,1 ball]

a) Qaysi xalifa islom dunyosida adolatparvarligi,din masalalarida qat`iyligi bilan shuhrat qozongan.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu shaxs davrida arba xalifaligiga qo`shib oligan hududlar qaysilar? (1 ta shahar nomini yozing)

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing

IV variant (8-sinf)

[1,3 ball]

1. Buyuk geografik kashfiyotlar **qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?**

- A) Gʻarbiy Rim imperiyasi qulashi B) Bastiliya ishgʻol etilishi
C) Vizantiya imperiyasi qulashi D) Martin Lyuter 95 tezisi yozilishi

[1,3 ball]

2. 1731-yil Tevkelev elchi sifatida Abulxayrxon huzuriga kelishining qoraqalpoqlar uchun **muhim ahamiyatga ega boʻlgan jihatini aniqlang.**

- A) Eron shohi Nodirshoh hujumidan saqlab qoldi
B) Qozoq juzlari tajovuzidan saqlab qoldi
C) Kaspiy va Orol dengizidan Kama daryosigacha boʻlgan hududda yashashi belgilandi
D) Xiva xonligi tarkibiga kiritildi

[1,3 ball]

3. XVIII asr Rossiyada **hukmronlik qilgan sulolani aniqlang.**

- A) Burbonlar B) Gannoverliklar C) Romanovlar D) Gabsburglar

[3,2 ball]

4. Quyidagi tarixiy voqealar (maʼlumotlar) **toʻgʻri xronologik ketma-ketlikda koʻrsatilgan javobni toping.**

- 1) Oʻttiz yillik urush tugadi;
2) Polvonquli qurchi Rossiyaga elchi qilib yuborildi;
3) Guanchjou portidan boshqa portlar yopib qoʻyildi;
4) Norboʻtabiy vafot etdi;
5) Napoleon uch konsuldan biri boʻlib oldi;
6) Qoʻqon xoni Olimxon oʻz nomi yozilgan dinor zarb ettirdi.
A) 1, 6, 3, 2, 4, 5 B) 1, 3, 4, 2, 5, 6 C) 1, 3, 2, 4, 5, 6 D) 2, 5, 4, 6, 1, 3

[3,2 ball]

5. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **toʻgʻri moslashtirilgan javobni toping.**

I	• vikup	A	• haqiqatan ham mavjud boʻlgan
II	• toʻlgʻama	B	• bir davlatning boshqasi ustidan hukmronlik qilishi
III	• gegemonlik	C	• krepostnoylikdan ozod boʻlgan dehqonning oʻziga berilgan yerni haq toʻlash evaziga sotib olishi
IV	• kejim	D	• otning ustiga yopiladigan yopinchiq
		E	• jang chogʻida dushman qoʻshinini qanotlaridan aylanib oʻtib, qurshab olib zarba berish usuli
		F	• otdan tushib kamondan oʻq otish usuli

- A) I-c, II-e, III-a, IV-d B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-c, II-e, III-b, IV-d D) I-b, II-a, III-d, IV-f

6. [3,2 ball]

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

I	• maysara	A	• mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi
II	• zemstvo	B	• Qo'qon xonligida qo'shinning chap qanoti
III	• maymana	C	• davlatni idora qilish usuli. Cheklanmagan hokimiyat davlat boshlig'iga tegishli bo'ladi
IV	• kabuki	D	• Qo'qon xonligida qo'shinning o'ng qanoti
		E	• yapon an'anaviy teatri
		F	• xitoy an'anaviy teatri

A) I-f, II-e, III-b, IV-a B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-f, II-e, III-b, IV-c D) I-b, II-a, III-d, IV-f
[2,2 ball]

7. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Tokugava sulolasidan chiqqan eng mashhur davlat arbobi. Qo'riq yerlarni o'zlashtirish hisobiga dehqonchilik qiluvchilarni rag'batlantirgan, yerni sotish sotib olish va garovga qo'yishni taqiqlovchi qonun chiqargan.

A) Tokugava Ieyasu B) Li Sun Sin C) Yosimune D) Oda Nobunaga

[2,2 ball]

8. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Xiva shahrini ulkan tashqi qal'a bilan o'ratgan. Uning davrida koshinkorlik san'ati rivojlangan, Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko'hna arkni koshin bilan bezatishni buyurgan. 1842-yil Pahlavon Mahmud maqbarasida dafn etilgan.

A) Muhammad Rahimxon I B) Olloqulixon C) Muhammad Rahimxon II D) Muhammad Aminxon

[2,2 ball]

9. Tarixiy davlatni aniqlang.

1855-yil Kassa o'zini imperator deb elon qildi. Yaxshi qurollangan qo'shin tuzib, feodallarni qo'shinga ega bo'lish huquqidan mahrum etdi. 1867 Buyuk Britaniya aralashuvi bilan Kassa hukumati ag'darildi.

A) Efiopiya B) Liberiya C) Eron D) Usmonli Turkular

[2,2 ball]

10. Tarixiy davlatni aniqlang.

XVIII asrda Buxorodan ajralib chiqqan. Asoschisi Shoxruxbiy Tepa qo'rg'on shahridan turib davlatni boshqargan. Shoxruxbiy vafotidan keyin Abdurahimbiy mamlakatni boshqargan.

A) Buxoro xonligi B) Qo'qon xonligi C) Xiva xonligi D) Buxoro amirligi

[3,2 ball]

11. Muhammad Rahimbiy (1756-1758) markazlashgan davlat tuzish masadida edi. Mustaqillikni da'vo etib yurgan viloyatlarini to'rt yil davomida bo'ysundirdi. **Quyida keltirilganlardan ushbu gapda qayd etilgan viloyatlarni aniqlang.**

1) Miyonqol; 2) Sayram; 3) Nurota; 4) Qo'bodiyon; 5) Farg'ona; 6) Boysun; 7) Toshkent; 8) Shahrisabz ; 9) Urgut;

A) 1, 4, 5, 6, 7, 9 B) 1, 3, 4, 6, 8, 9 C) 2, 3, 4, 5, 6, 7 D) 2, 3, 5, 7, 8, 9

[1,3 ball]

12. Quйда berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XIX asr G'arbiy Yevropa davlatlari tarixi uchun xos?

A) Angliya Chartistlar harakati faoliyat yuritgan

B) Moskva universiteti Lamonosov tashabbusi bilan tashkil etildi

C) Yaponiyada AQSH fuqarolariga eksteritoriallik huquqi berildi

D) Turkiyaga qarshi Germaniyada muqaddas liga tuzildi

[3,2 ball]

13. Xiva xonligini boshqargan Arabshohiyar sulolasidan bo'lgan **Shaxslarni aniqlang**

1) Eshmuhammadxon; 2) Shohmurod; 3) Arab Muhammadxon; 4) Mauhammad Alixon;

5) Asfandiyorxon; 6) Eltuzar; 7) Anushaxon; 8) Muhammad Rahmxon I

A) 2, 3, 5, 8 B) 1, 3, 5, 7 C) 2, 4, 6, 8 D) 1, 4, 6, 7

[1,3 ball]

14. 1807-yill Rossiya va Fransiya o'rtasida imzolangan shartnomani aniqlang.

A) Gandamak B) Parij sulhi C) Tilzit D) Borodino

[2,2 ball]

15. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi bilan bog'liq **to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.**

1) Turkmanlarning yovmut qabilasi hokimiyatni 1764-yilda qo'lga kiritdi;

2) 1837 yilda harbiy islohot o'tkazilib uch turdagi qo'shin: to'pchi, sarboz navkar guruuhlari tashkil etildi;

3) Erdonabiy davrida Sin imperiyasi bilan to'qnash kelib unga vassal davlatga aylandi.;

4) Hududi 200 ming km² bo'lib, aholisi 2 million kishini tashkil etgan;

5) Sug'oriladigan yerlarning 75 foiziga paxta ekilgan. Qolgan yerlarda bog', poliz va sabzavot mahsulotlari, tog'larda esa butun Osiyoda mashhur tog' pistasi yetishtirilgan;

6) Shayboniyxonning harbiy yurishlari davomida Movarounnahr va Xorazmga 500-600 ming Dashti Qipchoq o'zbeklari kirib kelgan;

7) 1821-yili Miyonqolda qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Uni bostirishga qanchalik urinilmasin, davlat qo'shini qo'zg'olonchilarning kuchini sindirolmadi.

A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 3, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 4, 6, 7

[2,2 ball]

16. Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) **to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.**

1) Buyuk Britaniya Bengaliyani bosib oldi; 2) Rim papasi Koreya yepiskopligi tuzilgani e'lon qildi;

3) Xiva xonligi Marvni uzil-kesil Buxorodan qaytarib oldi; 4) Florio Beneveni elchiligi nihoyasiga yetdi;

5) Muhammad Ali Sudan va Misrni boshqarishni me'ros qoldirish huquqiga ega bo'ldi;

6) Imomqulixon Toshkentni qozoqlardan ozod etdi.

A) 1, 3, 5, 4, 2, 6 B) 6, 4, 1, 2, 5, 3 C) 6, 4, 1, 5, 3, 2 D) 6, 4, 1, 5

[2,2 ball]

17.Xaritada yulduzcha ostida berilgan **davlat (hudud) tarixiga oid ma'lumotlarni toping.**

1) 1821-yil mustaqillika erishdi ; 2) 1811-yil mustaqillika erishdi 3) Xose Morelos ozodlik harakati yo`lboshchisi bo`lgan; 4) Simon Bolivar milliy ozodlik harakati yo`lboshchisi bo`lgan ; 5) Migel Idalgo 10 kunga quldorlardan qullarini ozod qilishni so`ragan ; 6) Yangi Grenada bilan birlashib Kolumbiya davlati tuzilgan.

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

[2,2 ball]

18.Tarixiy voqea va uning natijasi o`zaro **mos berilgan qatorlarni aniqlang.**

No	Voqea	Natija
1	Olimxonning 1810-yil fevral Sayram Chimkent,Turkistonga yurishi	Umarxonning taxtga o`tirishi
2	O`ttiz yillik urush tugadi	Fransiya Yevropada gegemonga aylandi
3	Musulmonqulning O`sh aholisi isyonini bostirishi	Olimxon o`g`li Murodxonning taxtga o`tirishi
4	Yetti yillik urush tugadi	Italiya Yevropada gegemonga aylandi
5	1645-yil Buxoroga qozoqlar hujumi	Nodir Muhammadning Balxga yuborilishi
6	Rossiyada "dekabristlar" isyoni	Rossiya Federatsiyasi tuzilishi
7	Rossiya 1556-yil Astraxanni egalladi	Jonibek Sultonning Zuhrabegimga uylanishi

A) 1, 2, 3, 5, 7

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 4, 5, 6, 7

D) 1, 3, 4, 6, 7

[3,2 ball]

19. Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan **moslarini** **qo'yib to'g'ri javobni toping.**

asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
a	Davlatshayx vafot etdi	b
c	d	Germaniyada dehqonlar urushi
XIX asr	e	f
g	Ubaydullaxon II pul islohoti o'tkazdi	h
i	j	Turkiyaga qarshi muqaddas liga tuzildi
XVIII asr ikkinchi yarmi	k	l

Ma'lumotlar: 1) Ost-indiya kompaniyasidan Buxoroga Murkford keldi; 2) XV asr; 3) AQSHda konstitutsiya qabul qilindi; 4) XVIII asr birinchi yarmi; 5) Vasko Da Gamma Hindistonga boradiga yo'lni kashf etdi; 6) Abulg'oziyxon Buxoroni 2 marta taladi; 7) XIII; 8) Pyotr I imperator deb e'lon qilindi; 9) XVI asr; 10) Birinchi jahon urushi tugadi; 11) Antanta ittifoqi tuzildi; 12) XVII asr; 13) Somoniylar davlati tashkil topdi; 14) Amir Shohmurod hukumronligi boshlandi; 15) XX asr; 16) Xiva xonligi tashkil topdi; 17) Kulikovo jangi bo'lib o'tdi; 18) Kanadaga Britaniya dominion huquqini berdi; 19) Aksum davlati tashkil topdi

A) a-2, b-1, c-15, d-16, e-5, f-19, g-4, h-3, i-12, j-6, k-6, l-11

B) a-4, b-8, c-9, d-16, e-1, f-17, g-2, h-5, i-12, j-6, k-10, l-3

C) a-4, b-18, c-7, d-6, e-13, f-5, g-2, h-8, i-15, j-16, k-14, l-11

D) a-2, b-5, c-9, d-16, e-1, f-18, g-4, h-8, i-12, j-6, k-14, l-3


[3,2 ball]

20. Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni aniqlang.**

XVIII-XIX asrlarda

Yaponiya

Koreya



a) XIX asr birinchi yarmida tashqi dunyodan ajratib qo'yish siyosati yuritilgan; b) XIX asr o'rtalarida Min sulolasi hokimiyatga keldi; c) Qora rangli oyoq kiyim kiyish taqiqlandi; d) Manjurlar vassaliga aylandi; e) Meydzi islohoti amalga oshirildi; f) "Qonunlarning buyuk to'plami" chiqarildi; g) "100 moddali farmon" chiqarildi; h) Kyonbokkun saroyi qayta tiklandi.; i) AQSH bilan "Tinchlik va do'stlik" to'g'risida shartnoma imzolandi va ikkita port ochib berildi

A) I-d, f, h; II-b, c, i; III-g

B) I-e, g, i; II-c, f, h; III-a

C) I-a, e, i; II-c, f, g; III-a

D) I-c, f, g; II-b, i, h; III-d

[1,3 ball]

21.XV asrda ochilgan Avliyo Georgiy banki **qaysi shaharda ochilgan?**

A) *Genuya* B) *London* C) *Parij* D) *Bryuge*

[2,2 ball]

22.Quyidagilardan qaysi omillar Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar saltanati hududlarida o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun **sabab BO'LMAGAN?**

1) Temuriyzodalar o'rtasidagi kurashdan Movarounnahr aholisining charchagani ; 2) Eronning sharqqa qarab kengayishi ; 3) Amudaryo o'z aning Orol debgiziga qarab o'zgarishi ; 4) Dashti Qipchoq aholisining o'troq turmush tarziga o'tish orzusi ; 5) **Dashti Qipchoq rahnamolarining** Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan qirg'inlarning takrorlanmasligini xoxlashi

A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 3, 5

[2,2 ball]

23.XVI-XVIII asrlarda Yevropada doim biri-biri bilan manfaatlari to'qnashgan mamlakatlarni belgilang.

1) Rossiya; 2) Fransiya; 3) Italiya; 4) Ispaniya; 5)Angliya; 6) Eron

A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

[1,3 ball]

24.Buxoro amirligida bir juft ho'kiz miqdoriga qarab olinadigan **soliq qanday atalgan?**

A) *ixrojot* B) *qo'sh puli* C) *tanobona* D) *zobitona*

[1,3 ball]

25.Dunyo tarixida mavjud bo'lgan **Absolutizm tartibi qanday tartib bo'lgan?**

A)*Hukumdorning cheklanmagan hokimiyati.*

B) *Bozorda va iqtisodiy hayotda yakka hukumronlik qilib,tanho sotish.*

C)*Hukumdorning vakolatlari konstitutsiya bilan belgilangan hokimiyat*

D)*Ruhoniylar,dvoryanlar va shaharliklardan iborat toifaviy monarxiya*

[2,2 ball]

26.Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyatdan ajralib,amalda mustaqil bo'lib olgan **hududlarni belgilang.**

1) Samarqand; 2) Ko'lob ; 3) Miyonqol; 4) Karmana; 5) Qarshi ; 6) Farg'ona ; 7) Balx.

A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 7

[2,2 ball]

27. O'zaro muvofiqlik saqlangan javobnitoping.

I. Xitoy; II. Hindiston; III. Eron; IV. Buyuk Britaniya;

a)Bobiyilar; b) Chartistlar; c)Taypinlar ; d) Sipohiylar;

1) 1857-1858-yillar; 2) 1850-1864-yillar; 3) 1848-1850-yillar o'rtalari; 4) 1836-1848-yillar.

A)I-c-1; II-d-2; III-b-4; IV-a-3 B)I-d-1; II-a-3; III-b-4; IV-c-2

C)I-c-2; II-d-1; III-a-3; IV-b-4 D)I-a-4; II-d-2; III-c-1; IV-b-3

[1,3 ball]

28.Qaysi madrasaga Yalangto'sh Bahodir tomonidan **asos solingan?**

A) *Baroqxon* B) *Tillakori* C) *Ko'kaldosh* D) *Kamol tunqator*

[1,3 ball]

29. Injil afsonasini odamlarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilgan qahramon haqidagi xalq dramasi sifatida bayon qilingan. Iso uqubatlarini, his-hayajonini ifodalaydigan musiqiy **asar**

nomi va uning muallifini aniqlang.

- A) "Figaroning uylanishi",Motsart
 B) "Qahramonnoma",Betxoven
 C) "Matto bayon etgan buyuk musibat",Bax
 D) "Fantaziya yo`lida sonata",Betxoven

[2,2 ball]

Mualliflar va ularning asarlari **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	• Amin Buxoriy	A	• "Tarixi Muqimxoniy"
2	• Abdurahmon Tole	B	• "Abdullanoma"
3	• Muhammad Yusuf Munshiy	C	• Shayboniynoma"
		D	• "Ubaydullanoma"
		E	• "Umarnoma"
		F	• "Abulfayzxon tarixi"

- A) 1-a, 2-d, 3-f B) 1-d, 2-f, 3-a C) 1-a, 2-f, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-f

[2,2 ball]

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	• Galileo Galiley	A	• Teleskopni ixtiro qilgan, geliosentrik nazariyaga asos solgan
2	• Jon Lokk	B	• 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatib, yer quyosh atrofida aylanadi degan fikrni bildirgan
3	• Nyuton	C	• Ko'zguli teleskopni ixtiro qilgan
		D	• Olam abadiy mavjud, hech qachon yo` bo`lmaydi degan fikrni ilgari surgan
		E	• hokimiyatni ijro etuvchi va qonun chiqaruvchiga ajratish
		F	• Eng mashhur haykaltarosh, David haykali uning ijodidan

- A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

[1,3 ball]

32. Calvinizm asoschisi Jan Calvin **qaysi shaharda yashagan?**

- A) Jeneva B) Parij C) Rim D) Afina

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang

33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan?	A) Angliya respublika deb e'lon qilindi B) Abdulazizxon keksayib qolganligi uchun taxtdan voz kechdi.
34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida Oliver Kromvel protektorati vujudga keldi?	C) Prussiya tashkil topdi. D) Abdullaxon II farmonida qoraqalpoqlar atamasi ishlatildi.
35. [2,2 ball] Usmonli Turklar tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.	E) Elbarsxon poytaxtni Vazirdan Urganchga ko'chirdi F) Salim I Qohirani egalladi.

36. Xitoyda Sinlar sulolasi 1644-1911-yillarda mavjud bo'lgan.

[1,1 ball]

a) Ushbu sulolaning asoschisini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu suloladan Xitoyda hukumronlik o'rnatgan shaxs nomini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. Xivada XVIII asr 40-yillaridan so'ng xonlar tez-tez almashtirilib turdi.

[1,5 ball]

a) Bu hodisa tarixga qaysi nom bilan kirganligini aniqlang va uni yozing.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu hodisa natijasida 1764 -yilda amalda hokimiyatni egallagan qabila nomini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. XIX asrda Lotin Amerikasi xalqlari mustamlakachi ispan va portugallarga qarshi milliy ozodlik harakatini boshladi.

[1,5 ball]

a) Qaysi davlat 1825-yilda ozodlikka erishdi?

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu kurash so'nggida Yuqori Peruda ozodlik qo'shiniga kim rahbarlik qilgan ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

39. XIX asr boshida Qo`qon xonligi O`rta Osiyo hududidagi eng katta davlatga aylandi.

[1,5 ball]

a) 1842-yilda Qo`qon xonligi taxtiga o`tirgan shaxsni aniqlang.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu shaxs kimning o`gli edi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

40. 1804-yil Napoleon imperator deb e`lon qilindi.

[1,1 ball]

a) Napoleon qaysi jangda Avstriya va Rossiya qo`shinlarini mag`lubiyatga uchratdi. Ushbu jang tarixga qanday nom bilan kirgan?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu jangdan so`ng Napoleon qaysi davlatga qarshi "qit`a qamali" e`lon qildi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

41. Ivan Xoxlov ma`lumotalrida: " Xiva va ... a) munosabatlarining sovuq ekanligini, Xiva va Eron munosabatlari ham yaxshi emasligini, ... b) to`lovlari savdoni rivojlantirishga to`siq bo`layotganligi, bu to`lov bir malakatdan boshqasiga o`tganda emas bir viloyatdan ikkinchisiga o`tayotganda olinishi".

yozilgan

Nuqtalar o`rniga mos keluvchi javoblarni yozing.

[1,1 ball]

a)

Javob: a)

[1,1 ball]

b)

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

42. Bobur Mirzo 1498-yilda Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo`ldi.

[1,1 ball]

a) Qaysi shaxs 1498-yili Andijonni egallab olgan edi? (shaxs nomini yozing)

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu shaxsga 1500-yili berilgan shaharni aniqlang.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43. Usmonli davlati 1768-yilda Rossiyaga qarshi urush boshladi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davrda Usmonli turklarda hukmronlik qilgan shaxs nomini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu urush natijasida Turkiya va Rossiya o'rtasida imzolangan shartnoma nomini yozing ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. Tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriyning berilgan fikrini o'qing shu asosda berilgan topshiriqlarni bajaring.

„ Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa,... viloyati gullabyashnadi ".

[1,1 ball]

a) Ushbu matnda tushirib qoldirilgan viloyat nomini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu fikrlar kimga nisbatan aytilganini aniqlang va yozing?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45. XVI asrda Hindistonda Boburiylar hokimiyat tepasiga keldi.

[1,1 ball]

a) Qaysi Boburiy hukumdor juda ko'p islohotlar o'tkazib, "Xalq hukumdori" nomini olgan.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu shaxs malakatda kimning tizimi asosida yagona taqvim joriy etgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

V variant (6-7-8-sinflar yuzasidan)

[1,3 ball]

1. Gollandiyaning Ispaniyadan mustaqil deb eʼlon qilinishi **qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?**

- A) Oʻttiz yillik urush B) Ispan taxti uchun urush
C) Yetti yillik urush D) Shimoliy urush

[1,3 ball]

2. Milodiy III asrda koʻchmanchi xunlar hujumining Xitoy uchun **muhim ahamiyatga ega boʻlgan jihatini aniqlang.**

- A) Sin imperiyasi quladi
B) "Osmon ostidagi podsholik" zaiflashdi
C) Xan imperiyasi quladi
D) Koʻp podsholiklar davri boshlandi

[1,3 ball]

3. XVII asr Xivada **hukmronlik qilgan sulolani aniqlang.**

- A) Qoʻngʻirotlar B) Mangʻitlar C) Minglar D) Arabshohiylar

[3,2 ball]

4. Quyidagi tarixiy voqealar (maʼlumotlar)

toʻgʻri xronologik ketma-ketlikda

koʻrsatilgan javobni toping.

- 1) Muahmmad Xorazmshoh Ashura orolida vafot etdi;
- 2) Maʼsudbek Chigʻatoy ulusi tarkibidagi Movarounnahrni boshqaruvchi etib tayinlandi;
- 3) Marko Polo sayohatini yakunladi;
- 4) Bahouddin Naqshbandiy tavallud topdi;
- 5) Kebekxon hukmronligi tugadi;
- 6) Muso I 10-12 tonna oltin bilan hajga bordi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 6, 5 C) 2, 1, 2, 4, 5, 6 D) 2, 5, 4, 6, 1, 3

[3,2 ball]

5. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **toʻgʻri moslashtirilgan javobni toping.**

I	• kapital	A	• ishlab chiqarish quroli va vositalariga egalik qiluvchi va ulardan daromad oluvchi hukmron sinf
II	• manufaktura	B	• ishlab chiqarish quroli va vositasida mahrum boʻlgan yollanma ishchi
III	• proletariat	C	• oʻz egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk
IV	• aksiya	D	• foydadan ulushini olish huquqini beruvchi qimmatbaho qogʻoz
		E	• qoʻl mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish
		F	• Mashina yordamida boshqa mashinaning yasaliishi

- A) I-c, II-e, III-a, IV-d B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-c, II-e, III-b, IV-d D) I-b, II-a, III-d, IV-f

6. [3,2 ball]

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

I	• Izofa	A	• barcha diniy marosimlarning taqiqlab qo'yilishi
II	• Qanbul	B	• e'tiqod ishi, din ishi, mahkumlarni gulxanda yoqish
III	• Autodafe	C	• Temuriylar qo'shinida qanotni old tomondan qo'riqlab boruvchi askariy qo'shilma
IV	• Interdikt	D	• Dahriylarni izlab topib sud qiluvchi tashkilot
		E	• Temuriylar qo'shinida qanotni yon tomondan qo'riqlab boruvchi askariy qo'shilma
		F	• Temuriylar qo'shinida zaxira qism

A) I-f, II-e, III-b, IV-a B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-f, II-e, III-b, IV-c D) I-b, II-a, III-d, IV-f

[2,2 ball]

7. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Rimda saylab qo'yilgan hukumdorni o'ldirib, o'zi hukumdor bo'lmoqchi bo'lgan. Biroq mil.avv 509-yilda rimliklar uni shahardan quvib chiqargan.

A) Perikl B) Drakont C) Mag'rur Tarkviniy D) Oktavian Avgust

[2,2 ball]

8. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Qo'qon shahrini obodonlashtirgan va uni xonlik poytaxtiga aylantirgan, Xo'jand va O'ratepani Buxorodan tortib olgan. Fitna qurboni bo'lib vafot etgan.

A) Olimxon B) Abdurahimbiy C) Abdulkarimbiy D) Erdonabiy

[2,2 ball]

9. Tarixiy davlatni aniqlang.

V asr boshida Pireney yarim orolida tashkil topgan. Ilk german davlati.

A) Langobard qirolligi B) Vestgot qirolligi C) Franklar qirolligi D) Ostgot qirolligi

[2,2 ball]

10. Tarixiy davlatni aniqlang.

Mil.avv III asrda saklar asos solgan. Hozirgi Toshkent vohasida joylashgan. Mil avv II asrda gullab yashnagan davlat.

A) Baqtriya B) Xorazm C) Qang' D) Davan

[3,2 ball]

11. 806-yilda arab lashkarboshchisi Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olon Movarounnahr viloyatlariga tarqalgan. Quyida keltirilganlardan ushbu gapda qayd etilgan viloyatlarni aniqlang.

1) Miyonqol; 2) Samarqand; 3) Shosh; 4) Farg'ona; 5) Buxoro; 6) Naxshab; 7) Xorazm; 8) Shahrisabz; 9) Urgut;

A) 1, 4, 5, 6, 7, 9 B) 1, 3, 4, 6, 8, 9 C) 2, 3, 4, 5, 6, 7 D) 2, 3, 5, 7, 8, 9

[1,3 ball]

12. Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XI asr O'rta Osiyo tarixi uchun xos?

- A) Saljuqiylar Xorazmni egalladi
B) Magnavr oliy maktabi vujudga keldi
C) Qarluqlar davlati xujudga keldi
D) Qoraxitoylar Movarounnahrga kirib keldi

[3,2 ball]

13. Anushtegniylar sulolasidan bo`lgan **Shaxslarni aniqlang**

- 1) Takash; 2) Sanjar; 3) El Arslon; 4) Go`rxon;
5) Qutbiddin Muhammad; 6) Eltutmish; 7) Jaloliddin Manguberdi; 8) Horun Bug`roxon
A) 2, 3, 5, 8 B) 1, 3, 5, 7 C) 2, 4, 6, 8 D) 1, 4, 6, 7

[1,3 ball]

14.1842-yill Rossiya va Xiva xonligi o`rtasida imzolangan shartnomani aniqlang.

- A) Gandimiyon B) Parij sulhi C) Majburiyatlar akti D) San-Stefano

[2,2 ball]

15.XI-XV asrlarda Angliya bilan bog`liq **to`g`ri berilgan ma`lumotlarni aniqlang.**

- 1) Dunay sohili bo`ylab 90 ta shahar Shvabiya Ittifoqiga birlashgan;
2) Richard II tomonidan qo`shimcha jon solig`i joriy etildi;
3) Buyuk Alfred Daniyaliklar bilan sulh shartnomasi tuzdi;
4) Buyuk Ozodlik xariyasi imzolanib, baronlar va ritsarlar manfaatlari kafolatlandi;
5) Xalq og`zaki ijodining sevimli qahramoni Robin Gud timsoli xalq orasida tarqaldi;
6) **Nizolar kuchayib mamlakat Botuxon bosqini arafasida 50 ta knyazlikka bo`linib ketdi;**
7) Uot Tayler qo`zg`oloni bo`lib o`tdi.

- A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 3, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 4, 6, 7

[2,2 ball]


16.Quyidagi tarixiy voqealar (ma`lumotlar) **to`g`ri xronologik ketma-ketlikda ko`rsatilgan javobni toping.**

- 1) Buddaviylik dini vujudga keldi;
2) Rim shahriga asos solindi;
3) Yunonistonda Olimpiada o`yinlari o`tkazish boshlandi;
4) Plateya jangi bo`lib o`tdi;
5) Kambiz II Misrni bosib oldi;
6) Kir II Bobilni bosib oldi.

- A) 1, 3, 5, 4, 2, 6 B) 3, 2, 1, 6, 5, 4 C) 6, 4, 1, 5, 3, 2 D) 3, 2, 1, 6, 4, 5

[2,2 ball]

17.Xaritada yulduzcha ostida berilgan davlat (hudud) tarixiga oid ma'lumotlarni toping.



1) 1860-yilda Juzeppe Garibaldi o'z qo'shini bilan Sitsiliya oroliga kelib tushdi ; 2) Lui Filipp taxtdan voz kechib Buyuk Britaniyaga qochib ketdi; 3) 1866-yilda Avstriyadan Venetsiya viloyati tortib olindi; 4) 1848-yil Konstitutsiya joriy etildi ; 5) 1848-yil Fransiyadagi inqilob ta'sirida Berlinda qo'zg'olon boshlandi; 6) Bosh vazir Kamilo Kavur mo'tadil burjuaziya tarafdori edi.

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

[2,2 ball]

18.Tarixiy voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

No	Voqea	Natija
1	Xalifa Horun ar-Rashid vafoti	Ma'mun va Amin o'rtasida kurash boshlandi
2	G'oyirxon tomonidan Chingizxon yuborgan karvonni talanishi	Ibn Kafroj Bug'roning ikki mulozimi bilan Xorazmshoh huzuriga kelishi
3	Chig'atoy tomonidan soliq islohoti amalga oshirilishi	Mahmud Yalavoch 1238-yilda noiblikdan chetlashtirildi
4	Muqanna 768-783-yillarda qo'zg'olon ko'tarishi	Ummaviylar sulolasi taxtdan ag'darildi
5	1360-1361-yillarda Tug'luq Temur Movarounnahrni ikki marta bosib olishi	Kesh hukumdori Hoji Barlos Xurosonga qochdi

6	Sheri Kishvar Abruy qo`zg`olonini bostirishi	Dehqonlarga Kashovar va chokarlari qaytarib berildi
7	1366-yil bahorda Amir Temur va Amir Husayn Konigilga kelib tushishi	Xurdaki Buxoriy va Abu Bakr Kalaviy dorga tortildi

A) 1, 2, 3, 5, 7 B) 2, 3, 4, 5, 6 C) 2, 4, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 6, 7

[3,2 ball]

19. Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan **moslarini qo'yib to'g'ri javobni toping.**

asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
a	Davan davlati quladi	b
c	d	Rimni Vandallar 2 hafta davomida taladi
IX asr	e	f
g	Ozarbayjonda O'zbek hukumronligiga barham berildi	h
i	j	Salim I Ismoil Safaviy qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi
XIX asr	k	l

Ma'lumotlar: 1) Xan imperiyasi xunlar hujumlari natijasida zaiflashib 3 ga bo'linib ketdi; 2) III asr; 3) Rudolf Gabsburg taxtga o'tirdi; 4) XIII asr; 5) Safforiylar davlati tashkil topdi; 6) G'ijduvon jangida Bobur mirzo yengildi; 7) XVIII; 8) Sezar imperator deb e'lon qilindi; 9) XVII asr; 10) Birinchi jahon urushi boslandi; 11) Afg'oniston taxtiga amir Do'stmuhammadxon o'tirdi; 12) XVI asr; 13) Maurya davlati tashkil topdi; 14) Buxoro amirligida amir Nasrullo hokimiyat tepasiga keldi; 15) V asr; 16) Eftallar Xitoyga elchi yubordi; 17) Subhonqulixon Xivani bosib oldi; 18) Irlandiyaga Britaniya dominion huquqini berdi; 19) Oleg Kiyev shahrini egallab, Kiyev rusiga asos soldi

A) a-2, b-1, c-15, d-16, e-5, f-19, g-4, h-3, i-12, j-6, k-14, l-11

B) a-4, b-8, c-9, d-16, e-1, f-17, g-2, h-5, i-12, j-6, k-10, l-3

C) a-4, b-18, c-7, d-6, e-13, f-5, g-2, h-8, i-15, j-16, k-14, l-11

D) a-2, b-5, c-9, d-16, e-1, f-18, g-4, h-8, i-12, j-6, k-14, l-3


[3,2 ball]

20. Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni aniqlang.**

XVIII-XIX asrlarda

Fransiya

Buyuk Britaniya



a) Ikkinchi afyun urushida ishtirok etgan; b) Buyuk Karl imperator deb eʼlon qilindi; c) Mustamlakalarida 300 million aholi istiqomat qilar edi; d) Styuartlar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi; e) inqilob natijasida qirol Lyudovik XVI qatl etildi; f) XVIII asr 40- yillarida sanoat toʻntarishi nihoyasiga yetdi; g) "Inson va fuqaro huquqlari" deklaratsiyasi qabul qilindi; h) Ikkinchi parlament islohotidan soʻng oʻz uyiga ega va alohida xonadonda turadigan erkaklarga saylov huquqi berildi; i) Valmi qishlogʻi yaqinida Prussiya qoʻshinlari hujumini qaytarishga muvofaq boʻldi.

- A) I-d, f, h; II-b, c, i; III-g B) I-e, g, i; II-c, f, h; III-a
C) I-a, e, i; II-c, f, g; III-a D) I-c, f, g; II-b, i, h; III-d

[1,3 ball]

21. Shergʻoziyxon madrasasi qaysi shaharda **qaysi shaharda qurilgan?**

- A) Xiva B) Buxoro C) Samarqand D) Qoʻqon

[2,2 ball]

22. Yunonistonda mil.avv 443-429-yillarda Besh Yuzlar kengashini strategy sifatida boshqargan Perikl **amalga oshirmagan ishlarini toping.**

1) Xalq Majlisidagi lavozimlarga haq toʻlash joriy etildi; 2) Afina eng qudratli davlatga aylandi va demokratiya ravnaq topdi; 3) qarzdorlarning qarzidan voz kechildi; 4) Afinada katta qurilish ishlari amalga oshirildi; 5) **nasabidan qatʼiy nazar xalq boshqaruvida ishtirok etish belgilandi**

- A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 3, 5

[2,2 ball]

23. VI asrda vujudga kelgan Turk xoqonligi ahvolini qaysi davlatlar bilan raqobat yanada ogʻirlashtirgan

1) Vizantiya; 2) Hindiston; 3) Eftallar; 4) Xitoy; 5) Eron; 6) Qoraxitoylar

- A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

[1,3 ball]

24. Amir Shohmurod davrida joriy etilgan qoʻshin xarajati uchun olingan **soliq qanday atalgan?**

- A) ixrojat B) tarxon C) jul D) zobitona

[1,3 ball]

25. Usmonli Turkklar tarixida mavjud boʻlgan yer egaligining **tumori shakli qanday boʻlgan?**

- A) harbiylarga harbiy xizmati uchun avlodan-avlodga meros qoldirish huquqi bilan berilgan yer
B) Sipohiylarga harbiy xizmati uchun xizmat vazifasi davomida berilgan yer
C) yanicharlarga harbiy xizmati uchun xizmat vazifasi davomida berilgan yer
D) masjid va madrasalarga berilgan yer

[2,2 ball]

26. XVII-XVIII asrlarda Sin imperiyasi bosqinchilik siyosati natijasida boʻysundirga hududlarni **belgilang.**

1) Yaponiya; 2) Koreya; 3) Gʻarbiy va Shimoliy Moʻgʻuliston; 4) Vyetnam; 5) Qashqar; 6) Janubiy va Sharqiy Moʻgʻuliston; 7) Tailand.

- A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 7

[2,2 ball]

27. **Oʻzaro muvofiqlik saqlangan javobni toping.**

I. Misr; II. Hindiston; III. Rim; IV. Mesopotamiya;

a) Apis; b) Ea; c) Vesta; d) Ganesha;

1) O'choq ilohasi; 2) Donishmandlik xudosi; 3) Suv ilohasi; 4) Ptaxning yerdagi ko'rinishi.

A) I-c-1; II-d-2; III-b-4; IV-a-3

B) I-d-1; II-a-3; III-b-4; IV-c-2

C) I-c-2; II-d-1; III-a-3; IV-b-4

D) I-a-4; II-d-2; III-c-1; IV-b-3

[1,3 ball]

28. Yaponiyada qal'a yaqinida qaysi shaharga **asos solingan**?

A) Otsu B) Nagoya C) Xyogo D) Nara

[1,3 ball]

29. "Bo'ri va sher timsolida zodagonlarning yirtqichlikdan iborat asl basharalarini ochib tashladi. Asarda sher barcha hayvonlar ustidan g'alaba qozonsa-da, mehnatkash xalq timsoli bo'lgan chumolidan yengiladi" ushbu **asar nomi va uning muallifini aniqlang**.

A) "Husnu dil", Nishotiy

B) "To'rt unsur", Bedil

C) "Hayvonotnoma", Nasafiy

D) "Zarbulmasal", Gulxaniy

[2,2 ball]

30. Mualliflar va ularning asarlari **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping**.

1	• Jaloliddin Rumiy	A	• "Qab ko'zingni och"
2	• Piter Abraxams	B	• "Hamlet"
3	• Jyul Vern	C	• "Chingizxonning oq buluti"
		D	• "Qabrdagi gulchambar"
		E	• "Don Kixot"
		F	• "O'n besh yoshli kapitan"

A) 1-a, 2-d, 3-f

B) 1-d, 2-f, 3-a

C) 1-a, 2-f, 3-c

D) 1-d, 2-b, 3-f

[2,2 ball]

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli

1	• Jamshid Koshoniy	A	• Samarqanda madrasasidagi yetakchi mudarris bo'lib uning darsida 90 ta talaba qatnashgan
2	• Qozizoda Rumiy	B	• Ulug'bek rasadxonasidagi ulkan sekstant o'rnatilishiga rahbarlik qilgan
3	• Ali Qushchi	C	• Birinchi ko'p tilli lug'atni yozgan
		D	• Ulug'bek madrasasida ilmi hayatdan dars bergan
		E	• Hadisshunos olim
		F	• "O'z davrining Ptolomeyi" deb ulug'langan

ma'lumotlar to'g'ri moslashtirilgan
javobni toping.

A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

[1,3 ball]

32. Mo'g'ullar 100-150 qo'yni darvoza yonidan olib o'tish hiylasini qaysi shaharda amalga oshirgan?

A) Buxoro B) Samarand C) Urganch D) O'tror

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang

33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan?	A) Divashtich va G'urrah isyon ko'targan.
34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida Yettisuvdan turk lashkari yetib keldi?	B) Ismoil Somoniy poytaxni Buxoroga ko'chirgan.
35. [2,2 ball] Qraxoniylar tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.	C) Ismoil somoniy Tarozi egalladi.
	D) Sosoniylar va Kidariylar to'qnashdi.
	E) Ma'sudbek pul islohoti o'tkazdi.
	F) Ibrohim Bo'ritegin Xuttalon, Vaxsh, Chag'oniyonni egalladi.

36. Hindistonda Boburiylar 1526-1858-yillarda mavjud bo'lgan.

[1,1 ball]

a) Ushbu sulolaning oxirgi vakilini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu sulola davrida qaysi mashur mavzoley qurilganini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. Fransiyada XV asrlarda qirol hokimiyatining markazlashish siyosati davom ettirildi.

[1,5 ball]

a) Bu jarayonda qirolga qarshi feodallar birlashib qanday ittifoq tuzishdi.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu ittifoq rahbari nomini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. XIX asr oxiriga kelib Afrika qit'asining 90 foizi mustamlakachilar qo'lga o'tdi.

[1,5 ball]

a) Qaysi davlat Angola va Mozambikni egalladi?

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu mustamlakachilik oqibatida Buyuk Britaniya XIX asr boshida burlarning qaysi koloniyasini bosib oladi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

39. XIX asr Aqsh uchun jadal rivojlanish asr bo'ldi.

[1,5 ball]

a) 1860-yilda Aqsh prezidenti bo'lgan shaxsni aniqlang.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu shaxs qaysi partiyadan edi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40. IV asrda Chandragupta I tomonidan Gupatalar davlatiga asos solindi.

[1,1 ball]

a) Ushbu hududda XIII asr boshida qaysi davlat vujudga keldi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu davlat asoschis kim?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

41. Nikita Muravyov "Esdaliklarida": " ... a) aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, ... b) ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar". deb yozgan

Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javoblarni yozing.

[1,1 ball]

a)

Javob: a)

[1,1 ball]

b)

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

42. 1500-yilda Shayboniyxon Samarqandni jangsiz qo'lga kiritdi .

[1,1 ball]

a) Kimning kaltabin siyosati tufayli Samarqand jangsiz egallandi? (shaxs nomini yozing)

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Samarqandga Shayboniyxon yoq'ligidan foydalanib, Boburni hokimiyatni egallashga da'vat etgan shayxulislomni aniqlang.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43. 1857-yil Parij tinchlik shartnomasi imzolandi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davrda Eronda hukumronlik qilgan sulolani aniqlang.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu sulh shartnomasiga ko'ra Eron qaysi shaharga bo'lgan da'vosidan voz kechdi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. Bobil mil.avv XVIII asrda eng qudratli davlatga aylandi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davrda Bobil podshosi kim edi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu shaxs vafotidan keyin Bobilni qaysi xalq bosib oldi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45. 618-907 yillarda Xitoyni Tan sulolasi boshqargan hokimiyat tepasiga keldi.

[1,1 ball]

a) Bu sulola davrida Xitoyda yagona pul joriy etilib, qanday nomlangan?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu sulola qaysi davlat bilan 20 yildan ortiq vaqt urush olib borib g'alabaga erishgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

VI variant (9-sinf)

[1,3 ball]

1. Turkiyada 1912-yil 5-avgustda o'tkazilgan harbiy to'ntarish **qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?**

- A) Birinchi Bolqon urushi B) Italiya Liviyani egallashi
C) Fransiya Marokashni egallashi D) Ikkinchi Bolqon urushi

[1,3 ball]

2. 1894-1895-yillarda bo'lib o'tgan Xitoy yapon urishining Yaponiya uchun **muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatini aniqlang.**

- A) *Xitoyning Ryukyu orolini bosib olib o'z hududini kengaytirdi*
B) *Xitoy hududida korxona qurish huquqini oldi*
C) *Koreya yarimorolini kuch bilan o'ziga qo'shib oldi*
D) *Janubiy Saxalin evaziga Kuril orollarini egalladi*

[1,3 ball]

3. XIX asr Buxoroda **hukmronlik qilgan sulolani aniqlang.**

- A) Mang'itlar B) Qo'ng'irotlar C) Minglar D) Shayboniylar

[3,2 ball]

4. Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar)

to'g'ri xronologik ketma-ketlikda

ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Mingtepada Yetimxon isyon ko'targan;
- 2) Ketmontepa va Ko'garda Chibil bo'lis isyon uyushtirdi;
- 3) Chernyayev tomonidan Avliyoota egallandi;
- 4) Veyovkin Turkistonni egalladi;
- 5) Lazerev boshchiligida Krasnovodskdan turkmanlarni bosib olish uchun qo'shin yo'lga chiqdi;
- 6) Marg'ilon uyezdida soliq yig'ish noqonuniy tusga kirganligiga qarshi xalq noroziligi.

- A) 3, 4, 5, 1, 6, 2 B) 4, 3, 1, 5, 6, 2 C) 3, 4, 1, 5, 2, 6 D) 3, 4, 1, 5, 6, 2

[3,2 ball]

5. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

I	• Sindikat	A	• Rossiyada monarxiyaning cheklanmagan davlat tizimi, mustabid hokimiyat
II	• Konsern	B	• Biror bir sohaga oid mavjud tartiblarni o'zgartirish
III	• Samoderjaviye	C	• Bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar birlashmasi
IV	• Chorizm	D	• Rossiyada imperatorning, monarxiyaning cheklanmagan hokimiyatini asoslovchi davlat tuzumi
		E	• manfaatlar umumiyligi asosida uyushgan korxonalar birlashmasi
		F	• Ishlab chiqarish korxonlarining bir joyda to'planishi

A) I-c, II-e, III-a, IV-d B) I-c, II-e, III-d, IV-a C) I-e, II-c, III-a, IV-d D) I-c, II-f, III-b, IV-d

6. [3,2 ball]

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

I	• radikal	A	• dinga qattiq berilgan, uning aqidalariga ko'r-ko'rona amal qiluvchi
II	• mutaassib	B	• keskin va qat'iy choralar tarafdori
III	• avtonomiya	C	• biror tashkilot tomonidan vakolatli saylab yoki tayinlab yuborilgan vakili
IV	• federatsiya	D	• biror bir hududning qonun bilan chegaralangan davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi
		E	• davlatlarning o'z siyosiy mustaqilligini muayyan doirada cheklash yo'li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi
		F	• Islohorlar tarafdorlari, o'rta sinf vakillarini qo'llab quvvatlovchilar

A) I-f, II-e, III-b, IV-a B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-f, II-e, III-b, IV-c D) I-b, II-a, III-d, IV-f

[2,2 ball]

7. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Andijondagi dukchi eshon qo'zg'olonida tuman bosh polkovnigi. Qo'zgonon vaqtida uyidan chiqmasdan telefon orqali harbiy kuchlarni chaqirgan.

A) Korolkov B) Vrevskiy C) Kuropatkin D) Konshevskiy

[2,2 ball]

8. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Birinchi jahon urushi yillarida Turkiya harbiy flotiga qo'mondon etib tayinlangan, Qora dengizga chiqib, Rossiya hududini o'qqa tutgan admiral.

A) Sushan B) Anvar posho C) Abdulhamid II D) Tal'at

[2,2 ball]

9. Tarixiy davlatni aniqlang.

1916-yil Antanta davlatlari bilan shatnoma tuzdi va Avstriya-Vengriyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi. Buning evaziga Transilvaniya, Bukovina va Banatning katta qismi va'da qilindi.

A) Ruminiya B) Turkiya C) Bolgariya D) Italiya

[2,2 ball]

10. Tarixiy davlatni aniqlang.

XIX asr oxiri XX asr boshida Eronning ichki ishlariga aralashib, baxtiyorlar qabilasini, Huziston xonlarini shohga qarshi gijgijlab turgan

A) Buyuk Britaniya B) Rossiya C) Fransiya D) Germaniya

[3,2 ball]

11. 1916-yilda Turkistonda mardikorlikka qarshi qo'zg'olon Farg'ona viloyatining qaysi uyezdlarida keskin tus oldi?

1) Qo'qon; 2) O'zgan; 3) Rishton; 4) Marg'ilon; 5) Shahrison; 6) Andijon; 7) Toshkent; 8) Namangan;

A) 1, 4, 5, 6, 7 B) 1, 3, 4, 6, 8 C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 5, 7, 8

[1,3 ball]

12. Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XIX asr **Afrika tarixi uchun xos?**

- A) Janubiy Afrika Ittifoqi tuzildi
- B) Samore Ture Afrikaga surgun qilindi
- C) Ingliz-bur urushi tugadi
- D) Xendrik Vitboy jangda halok bo'ldi

[3,2 ball]

13. XIX-asr oxiri XX asr boshida yashagan Britaniyalik bo'lgan **shaxslarni aniqlang**

- 1) Yelizaveta I ; 2) Reyter; 3) Gordon ; 4) Shpis ;
- 5) Sesil Rods; 6) Oliver Kromvel ; 7) Ferri ; 8) Xiks
- A) 2, 3, 5, 8 B) 1, 3, 4, 7 C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 4, 6, 7

[1,3 ball]

14. 1905-yilda Xitoyda tashkil etilgan siyosiy tashkilotni aniqlang.

- A) Gomindan B) Ixetuan C) Tunminxay D) Sinxay

[2,2 ball]

15. XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston general gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarixiga oid **to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.**


- 1) 1924-yilda tugatilgan;
- 2) Saratov Guberniyasidan katta bo'lgan;
- 3) Hududi Moskva guberniyasidan katta bo'lgan;
- 4) Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Olatavsk, Kopal okruglari hududlaridan tuzilgan;
- 5) Markazi Toshkent shahri bo'lgan;
- 6) **1886-yildan Amudayo bo'limi Sirdayo tarkibiga qo'shilgan;**
- 7) Markazi Verniy shahri bo'lgan.
- A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 4, 6, 7

[2,2 ball]

16. Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) **to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.**

- 1) Hind daryosi bo'yida yashaydigan afg'on qabilalari inglizlar tomonidan bo'sundirildi;
- 2) Rossiya kazaklari yordamida Eronda aksilinqilobiy to'ntarish amalga oshirildi;
- 3) Bolgar ozodlik qahramoni Xristo Botev halok bo'ldi;
- 4) Bolgariya Konstitutsiyasi tuzildi;
- 5) Argentin sotsial demokratik partiyasi tuzildi;
- 6) Braziliyada Izabel "Oltin qonun"ni qabul qildi.
- A) 1, 3, 4, 6, 5, 2 B) 3, 2, 1, 6, 5, 4 C) 1, 3, 4, 5, 6, 2 D) 3, 2, 1, 6, 4, 5

[2,2 ball]

17.Xaritada yulduzcha ostida berilgan **davlat (hudud) tarixiga oid ma'lumotlarni toping.**

1) 1911-yilda inqilob bo`lib o`tgan ; 2) 1904-1905-yillarda Yaponiay bilan urush olib borgan;
 3)1909-yilda hosizsizlik yili bo`ldi; 4) 1907-yilda Med jamiyati tuzilgan; 5)XIX asr oxiri XX asr
 boshida 100 dan ortiq millat yashagan; 6) 1870-1914-yillarda 25 million kishi ko`chib kelgan.

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

[2,2 ball]

18.Tarixiy voqea va uning natijasi o`zaro **mos berilgan qatorlarni aniqlang.**

No	Voqea	Natija
1	Buyuk Britaniya Afg`onistonning bir qismini bosib oldi	Rossiya turkmanlar yashaydigan hududga harbiy bo`linma yubordi
2	G`oyirxon tomonidan Chingizxon yuborgan karvonni talanishi	Ibn Kafroj Bug`roning ikki mulozimi bilan Xorazmshoh huzuriga kelishi
3	Chekasskiy ekspeditsiyasi mufafaqiyatsizlikka uchradi	Irish daryosi bo`yida yettita istehkom qurildi
4	Berlin kongressi	Avstriya-Vengriya bosniya va Gersogovinani bosib olish huquqiga ega bo`ldi

5	1873-yilda shartnoma Buxoro va Rossiya o'rtasida shartnoma imzolandi	Buxoroda podsho vakili tayinlandi
6	1916-yil Toshkentda qo'zg'olon	11 kishi o'ldirildi , 15 kishi yaralandi
7	11-iyul Namangan Labbaytog'a dahasida 1500 kishi yig'ildi	12 ta rota 3 ta artileriya isyonchilarga qarshi tashlandi

A) 1, 2, 3, 5, 7

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 4, 5, 6, 7

D) 1, 3, 4, 6, 7

[3,2 ball]

19.Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan **moslarini qo'yib to'g'ri javobni toping.**

Yil	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
a	Abdumalik to'ra vafot etdi	b
c	d	Efiopiya va Sudan o'rtasida urush harakatlari boshlandi
1886-yil	e	f
g	Xiva xoni «Islahotlar loyihasi»ni qabul qildi	h
i	j	AQSh Konstitutsiyasiga tuzatish kiritildi
1871-yil	k	l

Ma'lumotlar: 1) Uchastka mirovoy sudlari tuzildi; 2) 1910-yil; 3) **Germaniya Ta'sis reyxtagi umumgerman Konstitutsiyasini qabul qildi**; 4) 1909-yil ; 5) **Hindistonda kanop-tola fabrikalari soni ikki baravarga ko'paydi**; 6) Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi tashkil etildi; 7) 1911-yil; 8) **Eronda Muhammad Alishoh o'rniga Ahmad keldi**; 9) 1885-yil; 10) O'rta Osiyo olimlari jamiyati tashkil etildi ; 11) Antanta ittifoqi tuzildi ; 12) 1870-yil; 13) Ispaniya malikasi Izabella II Fransiyadan yordam so'rab keldi ; 14) Said Abdulla Xiva xonligida hokimiyat tepasiga keldi; 15) 1918; 16) Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi; 17) „**Qo'shma Shtatlar va Kanada uyushgan tred-yunionlari va ishchi ittifoqi federatsiyasi** „ „**Amerika Mehnat Federatsiyasi**“ ga aylantirildi.; 18) Irlandiyaga Britaniya dominion huquqini berdi; 19) Oleg Kiyev shahrini egallab,Kiyev rusiga asos soldi.

A)a-2, b-1, c-15, d-16, e-5, f-19, g-4, h-3, i-12, j-6, k-14, l-11

B)a-4, b-8, c-9, d-16, e-1, f-17, g-2, h-5, i-12, j-6, k-10, l-3

C)a-4, b-18, c-7, d-6, e-13, f-5, g-2, h-8, i-15, j-16, k-14, l-11

D)a-2, b-5, c-9, d-16, e-1, f-18, g-4, h-8, i-12, j-6, k-14, l-3


[3,2 ball]

20. Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni aniqlang.**

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida

Xiva

Buxoro



a) Ikkinchi afyun urushida ishtirok etgan; b) 2 ta paxta tozalash zavodi va 2 ta mehmonxona ochildi; c) Qo'shbegi, devonbegi va bosh qozi oliy amaldor bo'lgan; d) A-Meta sindikati vujudga keldi; e) 1876-yilda tugatilgan; f) Mehtar va Devonbegi oliy amaldorlar bo'lgan; g) Rossiya tomonidan protektoratga aylantirilgan; h) 90% aholi bor yo'g'I 5% yerga egalik qilgan; i) Rossiya bu davlat hududidan transit maqsadda foydalanib Afg'onistonga baxmal, chit, kerosin, gugurt, chinni buyumlar va movut olib o'tgan.

A) I-d, f, h; II-b, c, i; III-g B) I-e, b, i; II-c, f, h; III-g

C) I-a, e, i; II-c, f, b; III-g D) I-d, c, h; II-b, f, i; III-g

[1,3 ball]

21. Skadlovskaya Kyuri radioaktivlik faqat urangagina xos emasligini **qaysi shaharda o'tkazgan tajribasida aniqladi?**

A) Polsha B) London C) Nyu-York D) Parij

[2,2 ball]

22. Rossiyada 1906-yilda Stolipin agrar islohotida **amalba oshirilmagan ishlarini toping.**

1) Jamoa yer egaligini bekor qilish; 2) Dehqonlarga yer sotib olish uchun dehqonlar banki orqali yordam berish; 3) Dehqonlarga yerlarini sotib olish uchun 49 yil muddatga vikup berish; 4) yer tanqis mintaqadagi dehqonlarni imperiyaning milliy chekka o'lkalariga ko'chirish; 5) **Dehqonlarga berilgan ortiqcha yerlarni otrezok qilib pomeschikka berish**

A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 5 D) 3, 5

[2,2 ball]

23. 1902-yilda Matyoqub pishiq qaysi tumanlarda qo'zg'olon ko'tardi?

1) Pitnak; 2) Hazorasp; 3) Xonqa; 4) Ko'hna Urganch; 5) Yangi urganch; 6) Bog'ot

A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

[1,3 ball]

24. Xiva xonligida oloqlardan foydalanganlik uchun olingan **solliq qanday atalgan?**

A) Cho'p puli B) Kafsan C) Dorug'ayi muzd D) Afanak puli

[1,3 ball]

25. AQSH tarixiga oid **segregatsiya atamasi ma'nosini aniqlang.**

A) Ayrim davlatlarda aholini majburan irqiy guruhlariga bo'lish

B) Qora tanlilarni sudsiz qatl qilish, o'ldirish

C) Tub joy aholisini zo'rlab joylashtirish uchun ajratilgan hudud

D) Janubiy shtatlarda qora tanlilarni yo`q qilish uchun tuzilgan irqiy terorchilik tashkiloti

[2,2 ball]

26.XX asr boshida tuzilgan Bolqon ittifoqi tuzgan va unga qo`shilgan davlatlarni **belgilang**.

1) Xorvatiya; 2) Bolgariya ; 3) Albaniya; 4) Serbiya; 5) Chernogoriya; 6) Gretsiya; 7) Chexiya.

A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 7

[2,2 ball]

27. O`zaro muvofiqlik saqlangan javobni toping.

I. Germaniya; II. Fransiya; III. Rossiya; IV. Buyuk Britaniya;

a)Guamchjuvan; b) Port-Artur; c) Veyxayvey ; d) Szyaochjouvan;

1) Shandun; 2) Yanszi havzasi; 3) Yunan; 4) Lyuyshun.

A)I-c-1; II-d-2; III-b-4; IV-a-3 B)I-d-1; II-a-3; III-b-4; IV-c-2

C) I-a-3; II-d-1; III-b-4; IV-c-2 D)I-a-4; II-d-2; III-c-1; IV-b-3

[1,3 ball]

28. XIX asr oxiri XX asr boshida qoplar va arqonlar **qaysi shaharda tayyorlangan?**

A) Porsu B) Yangi Urganch C) Ko`hna Urganch D) Alieli

[1,3 ball]

29. 1916-yilda Qo`qon shahrida havaskorlar teatriga asos solindi.Bu yerda namoyish etilgan birinchi sahna **asar nomi va uning muallifini aniqlang**.

A) "Padarkush", M.Behbudiy

B) "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari",Hamza

C) "Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari",Fitrat

D) "Mahramlar", A.Samadov

[2,2 ball]

30.Mualliflar va ularning asarlari **to`g`ri moslashtirilgan javobni toping**.

1	• Roka Tokutomi	A	• "Kurosivo"
2	• Naoe Kinosito	B	• "Dengiz bo`risi"
3	• Shpengler	C	• "Yevropa quyoshining botishi"
		D	• "Sodiq fuqaro"
		E	• "Tom tog`aning kulbasi"
		F	• "Olovli ustun"

A) 1-a, 2-d, 3-f B) 1-d, 2-f, 3-a C) 1-a, 2-f, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-f

[2,2 ball]

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	• Grinyar	A	• xilma-xil organik moddalarni sintez qilish usulini kashf etdi
2	• Griss	B	• Gidralanishni kashf etdi
3	• Arrenius	C	• Barcha organizmlar hujayralardan tashkil topganligini ilmiy asosladi
		D	• Diazotlash reaksiyasini kashf etdi
		E	• Metal kesish jarayonini ilmiy jihatdan tekshirdi
		F	• Elektrolitlik dissotsiasini kashf etdi

A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

[1,3 ball]

32. 1898 5 kunlik barrikada janglari **qaysi shaharda amalga oshirgan?**

A) Milan B) Berlin C) Parij D) London

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang

33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan?	A) Sotsial demokratik partiya faoliyati 2,5 yilga (amalda 12 yilga) taqiqlandi.
34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida Meksikada diktatura o'rnatildi?	B) Avstriya-Vengriyada saylov tizimi islohoti.
35. [2,2 ball] Germaniyada yuz bergan voqeani aniqlang.	C) 1-davlat dumasi o'z ishini boshladi.
	D) Yaponiya Buyuk-Britaniya shartnomasi imzolandi.
	E) Trestlarga qarshi qonun qabul qilindi.
	F) Uerta davlat to'ntarixi uyushtirdi.

36. Buxoroda mang'itlar sulolasi 1756-1920 -yillarda mavjud bo'lgan.

[1,1 ball]

a) Ushbu sulolaning oxirgi vakilini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu suloladan Kavkaz va Qrimdan saroy va qimmatbaho sovg'alar xarid qilgan hukumdor ismini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. Braziliya Jaubiy Amerikada joylashgan eng yirik davlatlardan biri bo`lib XIX asr oxiri XX asr boshida 15 million aholi yashagan.

[1,5 ball]

a) Braziliyada kim boshchiligida shakarqamish plantatsiyasida qora tanlilar respublikasi tuzilgan.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Qora tanlilar qulchilikka qarshi qanday hujjat e`lon qildilar .

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

38. Rossiya imperiyasi O`rta Osiyoni to`ret bosqichda bosib oldi.

[1,5 ball]

a) Ikkinchi bosqichda Buxoroga qarshi harbiy harakatlar boshlandi. Buxoro bilan birinchi jang qayerda bo`lib o`tdi?

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu jangda Rossiya qo`shinlar qo`mondoni kim edi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing

39. XX asr boshida AQShda ishlab chiqarish kuchlari markazlashuvi yuz berdi.

[1,5 ball]

a) 1901-yilda Aqsh prezidenti bo`lgan shaxsni aniqlang.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu shaxsning ichki siyosati qanday nom olgan edi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

40. 1885-yilda HMK partiyasi tashkil topdi.

[1,1 ball]

a) Ushbu partiyada So`l oqim kimning rahbarligida tashkil topdi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu oqim gazetasi qanday nomlanadi?

Javob: b) Kesari (Sher)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

41. Buyuk Britaniya bosh vaziri Lloyd Jorj fikri: " Tarix o`zining xudbinlacha qaysarligi bilan quroldosh ...a)o`rtoqlarni halokatga uchratgan ... b) ning harbiy qo`mondonligidan javob talab qiladi"

Nuqtalar o`rniga mos keluvchi javoblarni yozing.

[1,1 ball]

a)

Javob: a)

[1,1 ball]

b)

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

42. 1855-yilda Ernazarbiy boshchiligida qozg`olon bo`lib o`tdi .

[1,1 ball]

a) Ushbu qo`zg`olon boshlangan paytda kim Xiva xoni edi? (shaxs nomini yozing)

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu qo`zg`olonni bostirga Xiva xonini aniqlang.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

43. 1915-yilda Antanta va Italiya o`rtasida shartnoma imzolandi.

[1,1 ball]

a) Ushbu shartnoma qaysi shaharda imzolangan.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu sulh shartnomasiga ko`ra Italiya qaysi shartnomadan chiqqanligini e`lon qildi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

44. 1892-yil Toshkentda vabo isyoni bo`lib o`tdi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davrda Toshkent shahar bshlig`I kim edi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu shaxsdan aholi kimni xalq ixtiyoriga topshirishni talab qiladi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

45. 1884-yilda birinchi rus-tuzem maktabi ochildi.

[1,1 ball]

a) Ushbu maktabning ochilishi paytida kim Turkiston general gubernator edi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) ushbu maktab dastavval qaysi shaharda ochilgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

VII variant (10-sinf umumiy)

[1,3 ball]

1. Leyborisltar yetakchisi Entoni Bler iste`fosi **qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?**

- A) *Isroil-Livan urushi* B) *Germaniya Polshaga bostirib kirishi*
C) *Potyomkin bronesosi matroslari isyon ko`tardi*      D) *Turkiya Respublika deb e`lon qilindi*

[1,3 ball]

2. Birinchi jahon urishining Fransiya uchun **muhim ahamiyatga ega bo`lgan jihatini aniqlang.**

- A) *AQSHdan va dominionlaridan qarz bo`lib qoldi*
B) *Yevropa qit`asida boshqa jiddiy raqib qolmadi*
C) *Kreditor davlatga aylandi*
D) *Inqilobiy voqealar boshlanib ketdi*

[1,3 ball]

3.XX asr boshida Frag`ona muvaqqat muxtoriyati hukumati **kimning boshchilgida tuzildi?**

- A) *M.Tinishboyev* B) *Shermuhammadbek* C) *M.Cho`qay* D) *Madaminbek*

[3,2 ball]

4.Quyidagi tarixiy voqealar (ma`lumotlar) **to`g`ri xronologik ketma-ketlikda ko`rsatilgan javobni toping.**

- 1) Turkiston ASSR MIK va TKP birlashgan kengashida Sovet Sotsialistik Respublikalarning O`rta Osiyo federatsiyasini yuzish taklifi bilan chiqdilar;
2) Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoyi bo`ldi;
3) Butunbuxoro xalq vakillarining V qurultoyi bo`lib o`tdi;
4) RSFSR MIQ III sesiyasida O`rta Osiyoda milliy trespublikalar tuzish to`g`risida maxsus qarori qabul qilindi;
5) Frag`ona vakillari RSFSR tarkibida Farg`ona muxtor viloyatini tuzish taklifi bilan chiqdilar;
6) XXSR kotibi Qalandar Odinayev ishdan olindi
A) 1, 5, 6, 3, 4, 2 B) 4, 3, 1, 5, 6, 2 C) 1, 5, 3, 6, 2, 4 D) 3, 4, 1, 5, 6, 2

[3,2 ball]

5.Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to`g`ri moslashtirilgan javobni toping.**

I	• funt	A	• Rossiyada 1905-yilda tashkil topgan partiya
II	• pud	B	• Rossiya sotsialist demokratik ishchi partiyasining 1903-yilgi syezdida tashkil topgan
III	• kadetlar	C	• 410 grammga teng og`irlik o`lchovi
IV	• maksimalistlar	D	• radikal o`zgarishlar va islohotlarni talab qiluvchi siyosiy oqim
		E	• 16,38 kgga teng o`g`irlik o`lchovi
		F	• 164 kgga teng og`irlik o`lchovi

- A) I-c, II-e, III-a, IV-d B) I-c, II-e, III-d, IV-a C) I-e, II-c, III-a, IV-d D) I-c, II-f, III-b, IV-d

6. [3,2 ball]

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

I	• Kapitulasiya	A	• Yirik harbiy qism
II	• Xartiya	B	• harbiy qism
III	• Polk	C	• Biror bir masala yuzasidan davlatlar o'rtasida tuziladi va uni imzolaganlar muayyan majburiyatlarni zimmalariga oladi
IV	• Diviziya	D	• Bir davlat hududining boshqa davlat tomonidan zo'rlik bilan qo'shib olinishi
		E	• Majburiy kuchga ega bo'lmagan xalqaro aktning umumiy qoidalari va maqsadlarini ifodalaydigan hujjat
		F	• Urushayotgan tomonlardan birining qurolli qarshilik ko'rsatishni davom ettirishidan voz kechishi

A) I-f, II-e, III-b, IV-a B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-f, II-e, III-b, IV-c D) I-b, II-a, III-d, IV-f
[2,2 ball]

7. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Toshkentlik bu shaxs tashabbusi bilan 1942-yilda Turkiston Legioniga asos solingan. Milliy Turkiston birligi qo'mitasi raisi bo'lgan qo'mitasi

A) Sobir Kamolov B) Mustafu Cho'qay C) Vali Qayumxon D) Munavvarqori Abdurashidxonov
[2,2 ball]

8. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Xitoyda fuqarolar urushida AQSh tomonidan qo'llab quvvatlangan bu shaxs boshchiligida Gomindan partiyasi fuqarolar urushida yengiladi

A) Mao Szedun B) Chan Kayshi C) U Peyfu D) Sun Yat Sen
[2,2 ball]

9. Tarixiy davlatni aniqlang.

1928-yilda yevropacha libos joriy etildi, feodal unvon va murojaat shakllari bekor qilindi, nasab joriy etildi.

A) Eron B) Turkiya C) Yaponiya D) Misr
[2,2 ball]

10. Tarixiy davlatni aniqlang.

1958-yilda sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'ringa chiqdi. Mamlakatning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishida davlat sektori asosiy rol o'ynadi.

A) Meksika B) Braziliya C) Argentina D) Chili
[3,2 ball]

11. Junaidxon qo'shinlari safida o'nlab sardorlarning guruhlari qaysi shaharlarda qizil askarlarga jiddiy zarba bergan?

1) Ko'hna Urganch; 2) Toshhovli; 3) Toshhovuz; 4) Ilyali; 5) Mang'it; 6) Qo'shko'pir; 7) Yangi Urganch; 8) Chimboy; 9) Hazorasp 10) Qo'ngiro't

A) 1, 4, 5, 6, 7, 9, 10 B) 1, 3, 4, 5, 6, 8, 10 C) 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9 D) 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9

[1,3 ball]

12. Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XX asr **Lotin Amerika davlatlari tarixi uchun xos?**

- A) *Shakar narxi 11 barobar oshdi*
- B) *Porfirio Dias hokimiyat tepasiga keldi*
- C) *XX syezdda shaxsga sig'inish qoralandi*
- D) *Simon Bolivar Venesuellani ozodlikka olib chiqdi*

[3,2 ball]

13. 1924-yil 15-iyulda RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va oblastlar muvaqqat byurosi tashkil etildi. **O'zbeklar byurosi tarkibiga a'zo sifatida kiritilgan shaxslarni aniqlang.**

- 1) D.Manjara; 2) Kalugin; 3) Muxtorjon Saidjonov; 4) Inoyatov; 5) Rustam islomov;
- 6) Sanjar Asfandiyorov; 7) Solomon Gersfeld; 8) Qori Yo'ldosh Po'latov
- A) 2, 3, 5, 8 B) 1, 3, 4, 7 C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 4, 6, 7

[1,3 ball]

14. Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi suv ombori **suv bilan to'ldirila boshlangan?**

- A) *Kosonsoy* B) *Kattaqo'rg'on* C) *Rudasoy* D) *So'x-Shohimardon*

[2,2 ball]

15. Eng yangi tarixning ikkinchi davrida Fransiya tarixiga oid **to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.**

- 1) 1948-yilda konstitutsiya qabul qilindi;
- 2) 1946-yilda konstitutsiya qabul qilindi;
- 3) Fashistlarga qarshi Xalq fronti tuzildi;
- 4) 1958-yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi;
- 5) Fransua Mitteran prezident bo'ldi;
- 6) **Jak Shirak prezident bo'ldi;**
- 7) Afrikadagi deyarli barcha mustamlakalariga mustaqillik berdi
- A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 4, 6, 7


[2,2 ball]

16. Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) **to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.**

- 1) Millatlar Ligasi mandat tizimini joriy etdi;
- 2) yaponiya Markaziy Xitoyni bosib oldi;
- 3) Germaniya Versal tinchlik shartnomasini imzoladi;
- 4) Vashingtonda 4 ta davlat o'z orollariga egalik qilish masalasida shartnoma imzoladi;
- 5) Manjou-Go qo'girchoq davlati tuzildi;
- 6) Yaponiya Millatlar Ligasidan chiqdi.
- A) 1, 3, 4, 6, 5, 2 B) 3, 2, 1, 6, 5, 4 C) 1, 3, 4, 5, 6, 2 D) 3, 2, 1, 6, 4, 5

[2,2 ball]

17.Xaritada yulduzcha ostida berilgan davlat (hudud) tarixiga oid ma'lumotlarni toping.



1) Taypinlar qo'zg'oloni bo'lib o'tgan; 2) Jejudo orolida dehqon va baliqchilar isyoni bo'lgan; 3) Qora dori olib kirish taqiqlangan; 4) XVII asrda Xristian dini taqiqlangan; 5) 1644-yildan mabjurlar hukmronligi boshlangan; 6) Aholi to'laydigan harbiy soliq uy boshi solig'i bilan almashtirilgan.

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

[2,2 ball]

18.Tarixiy voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

No	Voqea	Natija
1	Fransiya-prussiya urushi	Germaniya imperiyasi tuzildi
2	Vena kongressi	Yevropada Buyuk Britaniya va Rossiyaning ta'siri kuchaydi
3	AQSHda T.Ruzvelt prezident bo'lishi	Sud qarori bilan Morganning temiryo'l kompaniyasi 2 ga bo'lindi
4	Mashhur "pivo isyoni"	Mussolini Italiyada hokimiyat tepasiga keldi
5	Eltuzarning xonlik tepasiga kelishi	Xivada Qo'ng'irotlar sulolasi rasman hukmronligi boshlandi
6	Xitoy-Yaponiya urushi	Xitoy Nepalni egalladi
7	Vilgelm II Iso qabrini ziyorat qilishi	Turkiya bilan Bag'dod temir yo'l loyihasi kelishib olindi

A) 1, 2, 3, 5, 7

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 4, 5, 6, 7

D) 1, 3, 4, 6, 7

[3,2 ball]

19. Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan **moslarini qo'yib to'g'ri javobni toping.**

Asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
a	Eftalar davlati tashkil topdi	b
c	d	Jakeriya qo'zg'oloni bo'lib o'tdi
IX	e	f
g	Mahmud Yalavoch Xorazmga elchi bo'lib keldi	h
i	j	Bastiliya qal'asi ishg'ol etildi
XX	k	l

Ma'lumotlar: 1) Ma'mun va Amin o'rtasida xalifalik taxti uchun kurash bo'lgan ; 2) XIII ; 3) Italiyada Fiat aksiyadorlik jamiyati tuzildi; 4) V; 5) 4-salib yurishi tugadi; 6) Buxoroda Abulfayzxon hukumronliging boshlanishi ; 7) VII; 8) Vesgot qirolligi tuzildi; 9) XIV; 10) Sirdayo magistral kanali qurildi; 11) Buyuk Karl qirolligi boshlandi; 12) XVIII; 13) Ispaniya qirolchasi Izabella II yoradam so'rab keldi ; 14) Kekksalarni e'zozlash yil deb e'lon qilindi; 15) XVI ; 16) Amir Temur Xorazmni egalladi; 17 Kiyev Rusi tashkil topdi; 18) Shotlandiya va Angliya Uniya tuzdi va Buyuk Britaniya deb ataladigan bo'ldi ; 19) Turkiyada Abdulhamid II hukumronligi boshlandi.

A) a-2, b-1, c-15, d-16, e-5, f-19, g-4, h-3, i-12, j-6, k-14, l-11

B) a-4, b-8, c-9, d-16, e-1, f-17, g-2, h-5, i-12, j-6, k-10, l-3

C) a-4, b-18, c-7, d-6, e-13, f-5, g-2, h-8, i-15, j-16, k-14, l-11


D) a-2, b-5, c-9, d-16, e-1, f-18, g-4, h-8, i-12, j-6, k-14, l-3

[3,2 ball]

20. Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni aniqlang.**

XIX asrning II yarmi – XX asrning I yarmi

Germaniya Fransiya



a) Napoleon I imperator bo'lgan ; b) Shifokor o'ldirilishini bahona qilib Marokashni egallagan; c) Antanta ittifoqiga kirgan; d) Angra-Peken buxtasida 2000 marka va 200 eski miltiq evaziga yer sotib oldi; e) Qo'shilmaslik harakaiga kirgan ; f) To'rtlar ittifoqiga kirgan h) K. Adenauer boshchiligida hukumat tuzilgan g) Birinchi jahon urushida ishtirok etgan i) J. Klemanso bosh vazir bo'lgan.

A) I-d, f, h; II-b, c, i; III-g B) I-e, b, i; II-c, f, h; III-g

C) I-a, e, i; II-c, f, b; III-g D) I-d, c, h; II-b, f, i; III-g

[1,3 ball]

21. Osiyo davlari ichida barcha ustalar sex aʼzosi boʻlishi majburiy qilib belgilangan **davlati qaysi javobda keltirilgan?**

A) Xitoy B) Arab xalifaligi C) Hindiston D) Yaponiya

[2,2 ball]

22. XIX asr soʻnggi choragida Fransiya iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashdi. Dunyoda sanoat ishlab chiqarish hajmi boʻyicha 2-oʻrindan 4-oʻringa tushib qoldi. Quyida keltirilgan omillardan qaysilari Fransiya taraqqiyotining orqada qolishiga **sabab boʻlmagan?**

1) Fransiya-Prussiya urushi; 2) Dehqonlar xarid quvvatining pastligi; 3) Feodallar munosabatlar saqlanib qolganligi; 4) Krepostnoylik va bsolutizmning kapitalizm taraqqiyotiga taʼsiri ; 5)

Fransiya tabiiy boyliklari kamligi.

A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 5 D) 3, 5

[2,2 ball]

23. Turkiston muxtoriyatini alqab sherlar yozgan **shaxslarni belgilang?**

1) Fitrat; 2) S. Ayniy; 3) Furqat; 4) Choʻlpon; 5) Hamza; 6) A. Qodiriy

A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

[1,3 ball]

24. Ikkinchi jahon urushida frontga yetkazib berilgan tibbiy xizmat koʻrsatish xodimlari va uskunalar bilan taʼminlangan poyezd **qanday atalgan?**

A) Eshelon B) Bronopoyezd C) Barrikada D) Sanitar poyezd

[1,3 ball]

25. AQSH tarixiga oid **neytralitet atamasi maʼnosini aniqlang.**

A) davlatlar oʻrtasida olib borilayotgan urushga qoʻshilmaslik imkonini beruvchi maqom

B) biror-bir davlatning xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishdan bosh tortish siyosati

C) alohida shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qoʻyishga qaratilgan nazariya

D) mavjud tuzumni keskin oʻzgartirmaslik, uni konstitutsiya doirasida rivojlantirish tarafdorlari

[2,2 ball]

26. Buxoro-Xiva geologic mintaqalarida topilgan gaz konlarini **belgilang.**

1) Polvontosh; 2) Jarqoq ; 3) Kultak; 4) Uchqir; 5) Oʻrtabuloq; 6) Odamtosh; 7) Janubiy olamushuk.

A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 7

[2,2 ball]

27. **Oʻzaro muvofiqlik saqlangan javobni toping.**

I. Botir gapchilar; II. Milliy ittihadchilar; III. Narkompros;

a) Munavvarqori Abdurashidxonov;; b) Mannon Ramziy; c) Ashurali Zohiriy ;

1) 19 kishi; 2) 87 kishi; 3) Oʻrinbosari Botu;

A) I-c-1; II-a-2; III-b-3 B) I-d-1; II-a-3; III-b-2;

C) I-a-3; II-d-1; III-b-2 ; D) I-a-3; II-d-2; III-c-1;

[1,3 ball]

28. Yevropada xafvsizlik va hamkorlik boʻyicha kengash **qaysi shaharda oʻtkazilgan?**

A) Reykyavik B) Xelsinki C) Olso D) Amsterdam

[1,3 ball]

29. "Buxoroda 3000ga yaqin hovli, 3000 dan ortiq do`kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid, 34 ta guzar yonib tamom bo`ldi.shahar 20 kun yonib turdi" yuqoridagi matn keltirilgan **asar nomi va uning muallifini aniqlang.**

- A) "Tarixi Salimiy" Mirza Salimbek
 B) "Tarixi nafoe" Muahmmad Ali Balijuvoniy
 C) "Jaloliddin Manguberdi" Maqsud Shayxzoda
 D) "Muqanna" Hamid Olimjon

[2,2 ball]

30.Mualliflar va ularning asarlari **to`g`ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	• Sharof Rashidov	A	• "Berlin devoriga chizgilar"
2	• Alvaro Yunke	B	• G`arb o`lkasi haqidagi xotiralar"
3	• Zarif Sulton	C	• "Erk istar ko`ngil"
		D	• "Kashmir qo`shig`i"
		E	• "cho`qqida qolgan ovchining ohi-zori"
		F	• Muallima uchun atirgul"

- A) 1-a, 2-d, 3-f B) 1-d, 2-f, 3-a C) 1-a, 2-f, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-f

[2,2 ball]

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma`lumotlar **to`g`ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	• Sherali lapin	A	• "Sho`royi ulamo tashkilotining Qo`qon shu`basi rahbari"
2	• Ivan Tobolin	B	• "Sho`royi ulamo tashkilotining Toshkent shu`basi rahbari"
3	• Kobozev	C	• "Musbyuro" rahbari etib tayinlangan shaxs
		D	• Turkiston kommunistik partiyasi raisi.Uning raisligida 7 kishilik Markaziy Komitet saylandi
		E	• SSSR XKS raisi
		F	• O`rta Osiyo favqulodda komissari etib tayinlangan

- A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

[1,3 ball]

32. 1943-yilda antifashistik koalitsiya rahbarlari qaysi shaharda uchrashdi?

A) Tehron B) Berlin C) Qrim D) Potsdam

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang

33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan?	A) Tarakiy o'ldirilib hokimiyatga Hafizullo Amin keldi
34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida Afg'onistonga SSSR qo'shinlari kiritildi?	B) "Oq inqilob" bo'lib o'tdi
35. [2,2 ball] Eronda yuz bergan voqeani aniqlang.	C) Bxutto korrupsiyada ayblanib prezident tomonidan lavozimidan ozod qilindi
	D) Hokimiyatga general Ziyo ul-Haq keldi.
	E) Muhammad Najibullo hokimiyatga keldi
	F) Polkovnik Abdulqodir to'ntarish uyushtirdi

36. SSSR 1922-1991-yillarda mavjud bo'lgan.

[1,1 ball]

a) Ushbu davlat asoschisini yozing.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu davlatni eng uzoq vaqt davomida boshqargan shaxsni aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. 1920-1933-yillarda 200 mingdan ziyod dehqonlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirgan ittifoq faoliyat yuritgan.

[1,5 ball]

a) Ushbu ittifoq qanday nom bilan ataladi?

Javob: a)

[1,7 ball]

b) ushbu ittifoqdan chiqqan O'zbekiston SSR MIQ raisi bo'lgan shaxsni aniqlang va yozing

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. XX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan modernizatsiyalashning 3 ta varianti yaqqol ko'zga tashlanadi

[1,5 ball]

a) Qaysi davlatda 1959-yilda inqilibchilar hokimiyat tepasiga keladi?

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu modernizatsiyalash jarayonida Meksika qaysi modernizatsiya yo`lini tanladi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing

39. Ikkinchi jahon urushidan Buyuk Britaniya kuchsizlangan holda chiqdi.

[1,5 ball]

a) 1951-yilda Buyuk Britaniya bosh vaziri bo`lgan shaxsni aniqlang.

Javob: a)

[1,7 ball]

b) Ushbu shaxs qaysi partiya vakili edi ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

40. 1988-yilda "Birlik" xalq harakati vujudga keldi.

[1,1 ball]

a) Ushbu harakat asoschisi kim ?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu harakat huzurida tuzilgan ayollar harakati qanday nom bilan atalgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

41. "Toshkent,27-may.Toshkent mehnatkashlari o`zbek xalqining sodiq o`g`li,vatanimiz ozodligi va mustaqiligi uchun dushmanga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo`lgan gvardiyachi general-mayor Sobir Rahimov bilan so`nggi marta vidolashdilar"("Qizil askar haqiqiati" gazetasi,1945-yil 30-may,35-son) (Yangi kitobdan (Mardon Halimov))

[1,1 ball]

a) Ushbu dafn marosimida nutq so`zlagan Abdurahmonov qaysi tashkilot raisi edi ?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Sobir Rahimov dafn etilgan vaqtda O`zbekiston Kompartiyasi birinchi sekretari kim bo`lgan?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko`chirib yozing.

42. 1938-yilda Myunxen kelishuvi bo`lib o`tdi .

[1,1 ball]

a) Ushbu kelishuvni Italiya nomidan kim imzolagan ? (shaxs nomini yozing)

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu kelishuv natijasida Germaniya qaysi viloyatni Chexoslovakiyadan tortib oldi?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43. 1919-yil 9-aprelda Junaidxon va sovetlar o'rtasida shartnoma imzolandi.

[1,1 ball]

a) Ushbu shartnoma qayerda imzolangan?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Bu sulh shartnomasiga ko'ra sovetlar qaysi davlat mustaqilligini tan oldi?

Javob: b) Xiva

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. Yaponiyada 1920-yillarning oxirida harbiylarning roli oshdi. Mamlakatda harbiylar ayniqsa, radikal kayfiyatdagi guruhlar ta'sir keskin kuchaydi

[1,1 ball]

a) Ushbu harbiylar harakati Yaponiyda qanday nomlanadi?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu harakat tomonida turgan Yaponiya bosh vaziri ismini aniqlang va yozing.

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45. XX asr ikkinchi yarmida O'zbekiston SSRda asosiy hal qiluvchi o'rinda partiya turar edi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davrda O'zSSR metropoliten qurilishi tashabbusi bilan chiqqan kompartiya sekretarini aniqlang.

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ushbu metropolitenning 9 ta bekati qaysi shaharda ishga tushirilgan ?

Javob: b)

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing

VIII variant(10-sinf O`zbekiston tarixi 2022 nashr asosida)

[1,3 ball]

1. O`ratepa shahrining ruslar tomonidan egalla-nishi **qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?**

- A) Po`latxon isyoni B) Cho`ponota jangi
C) Zirabuloq jangi D) Xo`jandning egallanishi

[1,3 ball]

2. Rossiyada yuz bergan Fevral inqilobining Buxoro uchun **muhim ahamiyatga ega bo`lgan jihatini aniqlang.**

- A) Yosh buxoroliklar siyosiy harakatga aylandi
B) Amir hokimiyati ag`darib tashlandi
C) Siyosiy islohotlar haqida farmon chiqarildi
D) BXSР tashkil topdi

[1,3 ball]

3. XIX asrda Xivada hukumronlik qilgan sulolani aniqlang.

- A) Minglar B) Arabshohiylar C) Qo`ng`irotlar D) Mang`itlar

[3,2 ball]

4. Quyidagi tarixiy voqealar (ma`lumotlar)

to`g`ri xronologik ketma-ketlikda

ko`rsatilgan javobni toping.

- 1) O`zbekiston leninchi kommunistik yoshlar ittifoqi tashkil etildi.
2) Farg`ona vodiysida qo`rboshilik harakati o`zining eng yuqori cho`qqisiga chiqdi;
3) Anvar posho halok bo`ldi;
4) O`rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish o`tkazildi;
5) Chorjo`yda inqilobiy qo`mita tuzildi;
6) NEPga o`tildi.

- A) 2, 5, 6, 3, 4, 1 B) 3, 4, 2, 5, 6, 1
C) 2, 1, 6, 3, 4, 5 D) 4, 3, 1, 5, 6, 2

[3,2 ball]

5. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to`g`ri moslashtirilgan javobni toping.**

I	•Radikal
II	•Muxolifat
III	•Duma
IV	•Firqa

A	•shaharning o`zini o`zi boshqarish organi
B	•sochiluvchan , bo`lakli yoki donali yuklarning joyini o`zgartirishga mo`ljallangan to`xtovsiz uzatib turish mashinasi
C	•qarama qarshi fikrda bo`lgan, qarshi chiquvchi, qarshi
D	•maqsadi, g`oyasi, dunyoqarashining mushtarakligi jihatidan birlashgan kishilar guruhi
E	•keskin va qat`iy choralar tarafdori.
F	•Yangilik tarafdori bo`lgan erkin fikrlovchi kishi

A) I-c, II-e, III-a, IV-d B) I-c, II-e, III-d, IV-a C) I-e, II-c, III-a, IV-d D) I-c, II-f, III-b, IV-d
[3,2 ball]

6. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.

I	•Jevachi	A	•uyezd politsiyasi boshlig'i.
II	•Ispravnik	B	•qurol-aslaha yasovchi hunarmand yoki qurolxona boshlig'i
III	•Muvaqqat	C	•tumanlarga teng ma'muriy-hududiy bo'linma.
IV	•To'ra	D	•muayyan muddatga tuzilgan hukumat.
		E	•Xiva xonligida xon qarindoshlari va yaqinlariga beriladigan unvon
		F	•tumanlarga teng ma'muriy-hududiy bo'linma.

A) I-f, II-e, III-b, IV-a B) I-b, II-a, III-d, IV-e C) I-f, II-e, III-b, IV-c D) I-b, II-a, III-d, IV-f
[2,2 ball]

7. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Qo`qon xonligi xon o`rdasida mahram, keyin-chalik ellikboshi, yuzboshi, ponsadboshi bo`lgan 1847-yilda Oqmachitga bek qilib tayinlangan. Qal`a qomondoni sifatida rus bosqinchilariga qarshi kurashgan

A) Aliquli B) Yoqubbek
C) Bobobek D) Jo`rabek

[2,2 ball]

8. Tarixiy shaxsni aniqlang.

Turkiston yagona va butun, uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas, deb ta'kidlagan. Milliy masalada «og'machilik»ka yo'l qo'yishda ayblangan va 1937-yil 16-iyunda qamoqqa olingan va otishga hukm qilingan.

A) Q.Odinayev B) S.Xo`janov
C) M.Abdurashidxonov D) A.Fitrat

[2,2 ball]

9. Tarixiy davlatni aniqlang.

XIX asr ikkinchi yarmida g`ardan Kaspiy sharqdan Buxoro janubdan Eron bilan chegaradosh bo`lgan

A) Buxoro amirligi B) Xiva xonligi
C) O`zbekiston SSR D) Qo`qon

[2,2 ball]

10. Tarixiy davlatni aniqlang.

XX asrning 20-yillarida milliy hududiy chegara-lanish natijasida O`zbekistoon SSR tarkibida tashkil etilgan. 1929-yilda ajralib chiqqan.

A) Qoraqalpog`iston B) Qozog`iston
C) Qirg`iziston D) Tojikiston

[3,2 ball]

11. Turkiston general gubernatorligi tarkibidagi Farg`ona viloyatlariga qaysi hududlar

kiritil-gan?

1) Marg'ilon; 2) Toshkent; 3) Andijon; 4) Qo'qon; 5) O'sh; 6) Namangan; 7) G'azali; 8) Pomir;

A) 1, 4, 5, 6, 7, 8 B) 1, 3, 4, 5, 6, 8

C) 2, 3, 4, 5, 6, 8 D) 2, 3, 4, 5, 7, 8

[1,3 ball]

12. Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XX asr **O'rta Osiyo davlatlari tarixi uchun xos?**

A) *Gunohkorlarni ochiqchaisga jazolash boshlandi*

B) *Xudoyorxon vafot etdi*

C) *Dukchi eshon qo'zg'oloni bostirildi*

D) *Buxoroda jadidchilik siyosiy tus oldi*

[3,2 ball]

13. Milliy rahbar xodimlardan o'z lavozimlarini tark etib, muxolifatdagi qurolli harakat saflariga o'tib ketgan shaxslarni aniqlang.

1) Abdulhamid Oripov; 2) Akmal Ikromov; 3) Surayyo afandi 4) Usmon Xo'ja;

5) Yo'ldosh Oxunbobyev; 6) U.Asanov; 7) Qulmuhammedov; 8) S.Umarov

A) 2, 3, 5, 8 B) 1, 3, 4, 7 C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 4, 6, 7

[1,3 ball]

14. 1871-1893-yillarda faoliyat yuritgan O'rta Osiyo olimlar jamiyati nima sabadan yopib qo'yilgan?

A) *Mablag' yetishmasligi* B) *Milliy ozodlik harakati bilan alaoqasi borligi*

C) *Ilmiy xodimlar yetishmasligi* D) *Vaqf yerlarining tugallanishi*

[2,2 ball]

15. O'zbekiston SSR tarixiga oid **to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.**

1) 1925- yil 6-12-fevralda eski Buxoro shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiya-sining I ta'sis syezdida O'zbekiston Kommunis-tik(bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi;

2) O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi lavozimiga dastlab Fayzulla Xo'jayev saylangan;

3) 1927-yil 30-martda O'zSSR birinchi Konsti-tutsiyasi qabul qilindi;

4) 1936-yil 5-dekabrda Xorazm ASSR hududi O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi.;

5) O'zbekiston SSR tashkil topgan paytda

1925-yil fevral-aprel davomida Buxoro shahri edi;

6) 1925-yil 29-yanvarda ilk bor ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, 7 viloyat va alohida Konimex tumani tashkil etildi;

7) 1926-yil 29-sentyabrda 12 ta okrug va alohida Konimex tumani tuzildi.

A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 4, 6, 7

[2,2 ball]

16. Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) **to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.**

1) O'zbekiston qishloq xo'jaligini kollektivlash-tirish rasman tugallandi;

2) Sovet jamiyatida bozor munosabatlari muhiti barham topdi;

3) O'zbekistonda yakka dehqon xo'jaliklariga butkul barham berildi;

4) Birinchi besh yillik reja boshlandi;

5) SSSR MIKning «O'zSSR apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi;

6) Mirkomil Mirsharopov sovet rejimi tomonidan Maykopda qamoqqa olindi.

A) 1, 3, 4, 6, 5, 2 B) 4, 2, 5, 1, 6, 3 C) 5, 4, 1, 2, 3, 6 D) 3, 2, 1, 6, 4, 5

[2,2 ball]

17.Xaritada yulduzcha ostida berilgan viloyat tarixiga oid ma'lumotlarni toping.



1) Baranov elchi bo'lib kelgan; 2) Junaydxon sovetlarga qarshi kurashgan; 3) O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi; 4) Toshkentdan oldingi O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan 5) 1920-yil yanvarda sovet qo'shinlari bostirib kirdi; 6) 1920-yil 2-sentyabrda bolsheviklar armiyasi qo'shinlari kiritildi.

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

[2,2 ball]

18.Tarixiy voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

No	Voqea	Natija
1	Katta Ergash sovetlardan yengilishi	Shermuhammadbek Oloyga chekindi
2	Xiva xonligi bosib olindi	Yettisuv viloyati tuzildi
3	Niyozbek qal'asi egallandi	Toshkent suvdan uzib qo'yildi
4	Chimkent egallandi	Yangi Qo'qon chizig'i asosida qal'alar birlashtirildi
5	Madaminbek o'ldirildi	Milliy ozodlik harakati to'xtab qoldi
6	Nurullaboy saroyida xon o'ldirildi	Said Abdulla taxtga o'tirdi
7	Nasriddinbek Kaufman bilan shartnoma imzoladi	Chust va Namangan Rossiyaga berildi

A) 1, 2, 3, 5, 7

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 4, 5, 6, 7

D) 1, 3, 4, 6, 7

[3,2 ball]

19. Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan moslarini qo'yib to'g'ri javobni toping.

Asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
a	Toshkentda bolsheviklar hokimi-yati o'rnatildi	b
c	d	Koreya rasman Yaponiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi
1877	e	f
g	Rossiyadan Farg'ona viloyatiga ko'plab aholining ko'chirib keltirildi	h
i	j	Buyuk millat majlisi xalifalikni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi
1932	k	l

Ma'lumotlar: 1) Toshkentda shahar nizomi qabul qilindi; 2) 1891; 3) Iroq o'zini mustaqil deb e'lon qildi; 4) 1917; 5) Braziliya respublika deb e'lon qilindi; 6) Mulla Abdulqahhor qo'rboshi halok bo'ldi; 7) 1899; 8) AQSh qo'shinlari Meksikadan olib chiqildi; 9) 1910; 10) O'zbekiston Oliy sudining sobiq prokurori Shamsutdin Badriddinov ustidan sud jarayoni o'tkazildi; 11) Buyuk Karl qirolligi boshlandi; 12) 1924; 13) Ispaniya qirolichasi Izabella II yoradam so'rab keldi; 14) Navoiy shahri barpo etildi; 15) XVI; 16) Buxoroda jadidchilik siyosiy tuz oldi; 17) Rossiya Turkiya urushi boshlandi; 18) Suriya mustaqilligi e'lon qilindi; 19) Turkiyada Abdulhamid II hukumronligi boshlandi.

A) a-2, b-1, c-15, d-16, e-5, f-19, g-4, h-3, i-12, j-6, k-14, l-11


B) a-4, b-8, c-9, d-16, e-1, f-17, g-2, h-5, i-12, j-6, k-10, l-3

C) a-4, b-18, c-7, d-6, e-13, f-5, g-2, h-8, i-15, j-16, k-14, l-11

D) a-2, b-5, c-9, d-16, e-1, f-18, g-4, h-8, i-12, j-6, k-14, l-3

[3,2 ball]

20. Berilgan ma'lumotlarni Eyler-Ven diagrammasi asosida moslashtiring.



a) Mang'itlar sulolasi boshqargan; b) Oliy amaldor devonbegi bo'lib qo'shbegi, mehtar, otaliqdan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan; c) Tinchlik va tartibni saqlash bilan mirshabboshi shu g'ullangan; d) Bosh qo'mondon to'pchiboshi bo'lgan e) Bosh qo'mondon yasovulboshi hisoblangan; f) Minglar urug'i boshqargan.

A) I-a, d II-b-e III-c

B) I-a, d II-b-f III-c

C) I-b, e II-c, f III-d

D) I-b, e II-c, d III-f

[1,3 ball]

21. Solg`ut solig`i qaysi davlatda mavjud bo`lgan?

A) Buxoro B) Xiva C) Qo`qon D) Turkiston

[2,2 ball]

22. Quyidagilardan qaysi javobda Gandimiyon shartnomasi talablari to`g`ri berilmagan?

- 1) Amudaryoning o`ng sohili ruslarga berildi;
2) Muhammad Rahimxon II imperatorning Xivadagi agenti deb e`lon qilindi;
3) Xonlik xazinasida yetarli darajada pul bo`lmaganligi uchun bu tovon aholidan yig`ib olinadigan bo`ldi;
4) 2 million 200 ming rubl miqdoridagi tovonni 20 yil davomida to`lashi belgilandi;
5) **Buxoroga qarshi ittifoq tuzildi.**
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 5 D) 3, 5

[2,2 ball]

23. Toshkentni ixtiyoriy topshirishga qarshi bo`lgan shaxslarni toping.

- 1)Solihbek dodxoh 2)Abulqosim eshon 3)Hakimxo`ja 4)Muhammad Yoqub
5)Yetimxon
A) 1, 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

[1,3 ball]

24. Buxoro amirligiga qarashli yerlar bosib olingach qaysi okrug tuzildi?

- A) Samarqand B) Kattaqo`rg`on
C) Sirdaryo D) Zarafshon

[1,3 ball]

25. Soliq yig`uvchilar o`tgan kam hosil yillar

uchun ham xiroj to`lashni talab qilishi natijasida qayerda qo`zg`olon boshlangan?

- A) Ko`lob B) Baljuvon C) Nukus D) Chust

[2,2 ball]

26. Inglizlarning Ost-India kompaniyasi tomonidan yuborilgan shaxslarning O`rta Osiyoga kelgan yillari bo`yicha xronogik ketma-ketlikda ko`rsatilgan javobni toping.

1.Byorns 2.Murkroft 3.Volf 4.Abbot

- A) 1,2,4,3 B) 3,2,1,4

- C) 2,1,4,3 D) 3,2,4,1

[2,2 ball]

27. O`zaro muvofiqlik saqlangan javobni toping.

I.Buxoro II.Xiva III.Qo`qon

1.18+2 2.40 3.15

a) 3million b) 2million c) 800 ming d) 500 ming

- A) I-2,a II-1,b III-3,c

- B) I-2,b II-1,c III-3,a

- C) I-3,b II-2,a III-3,c

- D) I-1,b II-2,c III-3,a

28. 1936-yilda qaysi shaharda konservatoriya ochilgan?

- A) Samarqand B) Toshkent

- C) Buxoro D) Farg`ona

[1,3 ball]

29. "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydi-lar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim." ushbu **asar nomi va uning muallifini aniqlang.**

- A) A.Avloniy "Birinchi Muallim"
 B) A.Fitrat "Buxorolik muddarisning firangi bilan munozarasi"
 C) A.Cho'lpon "Kecha va kunduz"
 D) A.Qodiriy "O'tkan kunlar"

[2,2 ball]

30. Mualliflar va ularning asarlari **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	•G'afur G'ulom	A	•"Sen yetim emassan"
2	•Oybek	B	•"Kafansiz ko'milganlar"
3	•Hamid Olimjon	C	•"Turkiston qayg'usi"
		D	•"Yovga o'lim"
		E	•"Biz yengamiz"
		F	•"Qo'lingga qurol ol"

- A) 1-a, 2-d, 3-f B) 1-d, 2-f, 3-a C) 1-a, 2-f, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-f

[2,2 ball]

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1	•Linde	A	•elementlar davriy jadvalini yuzgan
2	•Nyukomen	B	•muzlatgichni ixtiro qilgan
3	•Edison	C	•xo'jalik lampochkasini ixtiro qilgan
		D	•radioni ixtiro qilgan
		E	•bug` mashinasini ixtiro qilgan
		F	•telefonni ixtiro qilgan

- A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

[1,3 ball]

32. Sobir Rahimov qaysi davlat hududida halok bo'lgan?

A) SSSR B) Bellorussiya C) Ukraina D) Polsha

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang

33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan?	A) Yerjar jangi bo'lib o'tdi
34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida Buxoro amirligi vassal davlatga aylandi?	B) Zirabuloq shartnomasi imzolandi
35. [2,2 ball] Quyidagilardan XXSRda yuz bergan voqeani aniqlang.	C) Chernyayev Chimkentni bosib oldi
	D) "Sho'royi islomiya" tuzildi
	E) Oktyabr to'ntarishi bo'lib o'tdi
	F) Qalandar Odinayev vazifasidan ozod etildi

36. O'zbekiston SSR 1925-yil tashkil topdi.

[1,1 ball]

a) Ushbu davlatning birinchi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi kim bo'lgan?

Javob: a)

[1,1 ball]

b) Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRni kim boshqargan?

Javob: b)

